جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid


2026-yil 23-oktyabr
№ 43 (147)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

***Bular (turkiylar)ga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.***

**Mahmud KOSHG‘ARIY,**
**“Devonu lug‘atit turk” muqaddimasidan**



# O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli yurtdoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni, xorijdagi vatandoshlarimiz va o‘zbek tilining barcha do‘stlarini 21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan ona tilimiz olis ajdodlarimizdan bizga buyuk meros bo‘lib kelayotgan o‘z tilimizdir.

Biz “O‘z” degan ezgu g‘oyani tilga munosabatimizda ham ana shunday tushunamiz va joriy etamiz. Ayni shu g‘oya o‘zak tomirlarimizdan oziqlanib kelgan ona tilimizga dunyo bilan erkin muloqot qilish, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda yangi kuch-quvvat beradi, deb ishonamiz.

Albatta, inson aynan til orqali o‘zini anglaydi, oilasi va el-yurtiga mehr tuyg‘usini ifoda etadi. Xalqning xotirasi, bilim va tajribasi, orzu-umidlari ham tilda mujassam bo‘ladi. Davlat tilining qadri va ahamiyati haqida gapirganda, biz, avvalo, ana shu jihatlarni yetakchi o‘ringa qo‘yamiz.

Bizning buyuk ajdodlarimiz aynan ona tilimiz boyliklaridan ilhom olib, ilm va adabiyot olamida durdona asarlar yaratganlar, inson qalbi va jamiyat hayoti haqida teran fikrlar yozib qoldirganlar. Ana shu an’analarni davom ettirgan holda, o‘z tilimizning imkoniyatlarini yangi ilm, texnologiya va ijod namunalari bilan boyitish – bizning mas’uliyatli vazifamizdir.

O‘zbekiston – turli millat va elat vakillari yagona oila bo‘lib, birgalikda yangi hayot va kelajak barpo etayotgan umumiy Vatanimizdir.

O‘z tilimiz davlat tili sifatida fuqarolarimizning muloqot tiliga aylanib, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlariga xizmat qilayotgani barchamizni albatta quvontiradi.


Ayni paytda har bir insonning ona tili va madaniy qadriyatlariga hurmat va e’tibor – jamiyatdagi do‘stlik hamda hamjihatlikning muhim asosi ekanini ham biz yaxshi tushunamiz. Shu bois yurtimizda qoraqalpoq tili va boshqa tillarning rivojini qo‘llab-quvvatlash, o‘zbek tilini o‘rganish uchun qulay sharoitlar yaratish borasidagi ishlar o‘zaro uyg‘un va bir-birini to‘ldiradigan holda olib borilmoqda.

Davlat tilini bilish, hech shubhasiz, insonga yangi bilim va imkoniyatlar eshigini ochadi, ularda umumiy hayotimiz, istiqbolimiz uchun daxldorlik hissini kuchaytiradi. Bu borada o‘zbek tilini endigina o‘rgana boshlagan insonga samimiy munosabatda bo‘lish, uning intilishini qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, muhimdir.

Biz yoshlarimizning o‘zbek tilida teran fikrlashi, chet tillarini puxta egallashi va jahondagi ijobiy o‘zgarishlarga hamnafas bo‘lishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratishimiz zarur. Bu borada tarjima san’ati ham alohida o‘rin tutadi.

*(Davomi 2-sahifada).*

YETTIKUNLIK




# O‘zimizning O‘Z g‘oyamiz

**O‘zbekiston hayotida tashqi siyosat, milliy o‘zlik va hududiy taraqqiyotni qamrab olgan yana bir hafta tarixga muhrlandi. Bu yettikunlikda yetakchi so‘z millatimiz nomi o‘zagida turgan “O‘Z” so‘zi bo‘ldi.**

**Ana shu oltin o‘zak Til bayrami tabrigida ham, murojaat va muloqotlarda ham sarbaland jarangladi.**

AQSH Davlat kotibi Marko Rubioning tashrifi va Samarqanddagi “C5+1” muloqoti mamlakatimizning xalqaro sherikligini mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tili bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigi milliy qadriyatlar va bag‘rikenglik masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Qashqadaryoga tashrif esa islohotlarning hududlardagi amaliy natijalari – yangi ish o‘rinlari, sanoat va kasbiy ta’lim bilan bog‘liq vazifalarni namoyon etdi.

Samarqandda bo‘lib o‘tgan bolalar farovonligi bo‘yicha xalqaro sammit bu uch yo‘nalishni kelajak avlod manfaatlari bilan bog‘ladi.

### SAMARQANDDAGI MULOQOT

AQSH Davlat kotibi Marko Rubio boshchiligidagi nufuzli delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifi, Samarqandda o‘tkazilgan “C5+1” vazirlar uchrashuvi hamda Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi O‘zbekiston–AQSH munosabatlarini sifat jihatidan mutlaqo yangi, strategik va amaliy bosqichga olib chiqdi. Ushbu tashrif geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatdan ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqelikka aylandi, deyish mumkin.

“C5+1” vazirlar uchrashuvi va Amerika–O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi doirasida savdo, investitsiya, xavfsizlik, innovatsiyalar, energetika va ta’lim masalalari muhokama qilindi. Kengash yig‘ilishida umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollar bo‘lgan 54 ta kelishuv va istiqbolli tashabbus taqdim etildi.

*(Davomi 2-sahifada).*

## FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi Qarshi shahrini barpo qilish hamda Qarshi magistral kanali bo‘yida turizm majmuasini tashkil etish loyihalari bilan tanishdi.**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-oktyabr kuni Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Hay’ati raisi Baqitjan Sag‘intayevni qabul qildi.**
- **O‘zbekiston Birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva global sog‘liqni saqlashga qo‘shgan hissasi uchun JSSTning nufuzli mukofotiga sazovor bo‘ldi.**
- **Yaponiyada davom etayotgan Paraosiyo o‘yinlarida O‘zbekiston delegatsiyasi hisobidagi medallar soni 37 ta oltin, 38 ta kumush va 39 bronzaga yetdi.**

BUGUNNING GAPI

# EHTIROM AMALDA KO‘RINSIN




**2020-yil. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tilidagi nutqi yangradi. Davlat tiliga ehtiromning jahon minbaridan turib ko‘rsatilgan ushbu go‘zal namunasi har birimiz uchun ibrat va saboqdir. O‘zbekiston Prezidentining ona tilimizga yuksak e’tibori qabul qilinayotgan amaliy qarorlarda ham yaqqol namoyon.**

Davlat rahbarining 2019-yili “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” tarixiy farmoni qabul qilindi. 2020-yili o‘zbek tilini rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasi tasdiqlandi va 21-oktyabr rasman “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida rasmiy bayramlar qatoridan joy oldi. Natijada idoralarda til masalalari bo‘yicha maslahatchilar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, atamalar ustida ishlash va til bo‘yicha malaka oshirish kabi muhim yo‘nalishlar shakllandi.

*(Davomi 3-sahifada).*

VATAN MANZUMASI

**Bahodir ISO**

## *Yurtim, qanday sevmayin seni?*

**Otam bo‘lib silading boshim,**
**Onam bo‘lib berding oppoq sut.**
**Osmonimda bo‘lib quyoshim,**
**Erkalatding doim, ona yurt.**
**Shunday sevib tursang sen meni,**
**Yurtim, qanday sevmayin seni?**

**Akam bo‘lib yurding opichlab,**
**Opam bo‘lib qo‘ymading yerga.**
**Biyron-biyron tilimni xushlab,**
**O‘zing meni o‘rgatding she’rga?**
**Shunday sevib tursang sen meni,**
**Yurtim, qanday sevmayin seni?**

**Jonim ukam, jonajon singlim,**
**Jovdiraysan ko‘zimga boqib.**
**Ayozlarda sovqotsa qo‘ling,**
**Yuragimni beraymi yoqib?**
**Axir sevib tursang sen meni,**
**Yurtim, qanday sevmayin seni?**

**Ostonangdan bir qadam jilsam,**
**Sog‘inchlarga to‘ladi jonim.**
**Sen ekansan men endi bilsam,**
**Tanamda jon, O‘zbekistonim!**
**Jonday sevib tursang sen meni,**
**Yurtim, qanday sevmayin seni?**

NAJOT – TA’LIMDA

# BITIRUVCHI PORTRETI



**So‘nggi vaqtda mamlakatimiz ta’lim tizimida katta yangiliklar yuz berdi: 3-oktyabrda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi birlashtirilib, Ta’lim va ilm-fan vazirligi tuzildi. Undan bir necha kun oldin, 28-sentyabrdagi taqdimot haqidagi rasmiy xabarda bitiruvchining yangi portretiga oid asosiy belgilar sanab o‘tildi: bilim, zamonaviy ko‘nikmalar, axborot texnologiyalarini puxta egallash, ijodiy va mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish qobiliyati. 30-sentyabrda esa Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilg‘or pedagoglar uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilishini e’lon qildi.**

Prezidentimiz jadidlar haqida ko‘p bor gapirgan. “Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi”, “bugungi islohotlar jadidlar g‘oyalari bilan har jihatdan uyg‘un va hamohangdir”, deya ta’kidlagan. Demak, jadidlar chizgan bitiruvchi portretini bugungi talablar bilan yonma-yon qo‘yib ko‘rish juda o‘rinlidir.

### “O‘N TO‘QQIZ YOSHIDA OLIM...”

Abdurauf Fitrat 1909-yilda “Munozara” asarini yozgan. Unda yangi maktabning maqsadi bir jumlada tushuntiriladi: bola olti yoshida maktabga boradi, “o‘n to‘qqiz yoshida olim, mutadayyin, vatanparvar, dindo‘st, millatparast, siddiq, odil, tamom islomiy amrlarga muti’, butun insoniy shartlarga mushtamal bir shaxs bo‘ladi”.

*(5-sahifada o‘qing).*

# O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

***(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).***

Biz tarjima orqali insoniyatning tafakkur xazinasidan eng yaxshi asarlarni o‘z tilimizga olib kiramiz, davlat tilidagi g‘oya va asarlarni esa boshqa xalqlarga yetkazamiz.

Ayniqsa, Oksford universitetidagi “O‘zbekshunoslik dasturi” kabi hamkorlik yo‘nalishlari tarjima asosidagi ana shunday muloqotning namunasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Chet ellardagi o‘zbek tili o‘qituvchilari, tadqiqotchi va talabalarning qiziqishini rag‘batlantirish, ularni sifatli adabiyotlar, ta’lim resurslari bilan ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Muhtaram vatandoshlar!

Tilning hayotimizdagi o‘rni, avvalo, undan qanchalik samarali foydalanish darajasi bilan bog‘liq. Bola o‘z fikrini ravon bayon eta olsa, talaba murakkab mavzuni tushungan holda o‘rgansa, fuqaro rasmiy hujjat mazmunini osongina anglasa – til taraqqiyotining natijasi aynan shunda ko‘rinadi.

Shuning uchun ta’lim sohasida asosiy e’tiborni o‘quvchining o‘qish, tushunish, gapirish va savodli yozish ko‘nikmalariga qaratishimiz kerak. O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘rganayotgan bola bilan uni davlat tili sifatida egallayotgan o‘quvchining ehtiyojlari o‘rtasida albatta farq bor. Darslik va o‘qitish usullarini yangilashda bu, albatta, hisobga olinishi lozim.

Hayot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, muallimlarning malakasi, bolalar adabiyoti, kutubxonalar va zamonaviy ta’lim vositalari tilga bo‘lgan mehrni mustahkamlaydi. Oiladagi samimiy suhbat, birgalikda kitob o‘qish va bolaning savollariga e’tibor ham shu jarayonning muhim qismi. Shu ma’noda mamlakatimizda kitobxonlikni umummilliy harakatga aylantirib, bu jarayonga katta e’tibor berayotganimiz zamirida ham tilimiz rivoji haqidagi e’tibor mavjud, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Davlat idoralari bu borada namuna bo‘lishi shart. Qonun, qaror, yo‘riqnoma va murojaatlarga javoblar ravon, aniq va tushunarli tilda yozilishi kerak. Fuqaro o‘zining haq-huquqi yoki majburiyatini anglash uchun ortiqcha qiyinchilikka duch kelmasligi lozim. Davlat tiliga hurmat davlat xizmatining sifatida ham ko‘rinishi kerak.

Oldimizdagi muhim vazifalardan yana biri – o‘zbek tilida zamonaviy ilmiy manbalardan foydalanish va yangi tadqiqot natijalarini bayon etish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot va boshqa sohalarda ishonchli adabiyotlar, sifatli tarjima matnlari hamda elektron resurslarga ehtiyoj katta.

Bu borada hurmatli olimlarimiz, tilshunos, tarjimon va mutaxassislarning hamkorligi zarur. Atamalarni tanlashda ma’no aniqligi, ularning tushunarli va xalqaro ilmiy muloqot bilan bog‘liq bo‘lishiga e’tibor qaratishimiz kerak. Lug‘atlarimiz ham tilning jonli taraqqiyoti va yangi bilimlarni izchil aks ettirib borishi lozim.

Yana bir dolzarb vazifa – o‘zbek tilidan bugungi raqamli muhitda ham to‘laqonli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishimiz zarur. Buning uchun sifatli matnlar va nutq namunalarini jamlash, elektron lug‘atlar, tarjima va tahrir vositalarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Nutqni matnga, matnni ovozga aylantiradigan texnologiyalar ta’limda, mehnat jarayonida va kundalik hayotda odamlarga qulaylik yaratishi kerak. Bunday resurslarni tayyorlashda mualliflik huquqi va shaxsiy ma’lumotlar himoyasiga oid qoidalarga amal qilinishi lozim.

Biz barpo etayotgan inklyuziv jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, ulardan nogironligi bo‘lgan insonlar ham foydalana olishiga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Sun’iy intellekt vositalarining davlat tilidagi sifati ularning insonga qanchalik aniq va foydali yordam berayotgani bilan baholanadi.

Yozuv va imlo masalalarida ham asosiy mezon odamlarning o‘qishi, yozishi va axborotdan foydalanishi uchun qulaylik bo‘lishi kerak. Bu boradagi yechimlar ilmiy asos, jamoatchilik bilan muloqot va amaliy tayyorgarlikka tayanishi lozim. Ta’lim, nashriyotlar va raqamli tizimlarning o‘zaro muvofiqligi, turli avlodlarning ehtiyojlari puxta hisobga olinishi zarur.

Fursatdan foydalanib, o‘z tilimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan olim va tadqiqotchilarga, muallim va tarjimonlarga, adib va jurnalistlarga, noshirlar va axborot texnologiyalari mutaxassislariga samimiy minnatdorlik bildiraman. O‘zbek tilini mehr bilan o‘rganayotgan yurtdoshlarimiz va xorijlik do‘stlarimizga ham alohida tashakkur aytaman.

Ona tilimizni sevib, ardoqlab, uning shuhratini oshirishga, dunyo bilan muloqotini kengaytirishga har birimiz munosib hissa qo‘shaylik!

Siz, aziz vatandoshlarimni yana bir bor tabriklab, sizlarga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik, yutuq va omadlar tilayman.

O‘zbek tili bayrami barchamizga muborak bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**YODGORLIK**

**O‘zbekiston Qahramoni, san’at arbobi, Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot sohibi Ibrohim G‘afurov xotirasini abadiylashtirish, ilmiy-ijodiy merosini keng o‘rganish maqsadida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida yodgorlik hamda ijod va tarjima maktabi ochildi.**

**Tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov, filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Xurshid Do‘stmuhammad, Ibrohim G‘afurovning qizi Zulayho Alimova, ijodkorlar, olimlar, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar ishtirok etdi.**



# MUTAFAKKIR MEROSIGA EHTIROM

Ibrohim G‘afurov nomidagi ijod va tarjima maktabi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan. Maktabning asosiy maqsadi – adibning boy ijodiy merosini keng targ‘ib qilish, uning o‘zbek adabiyoti, adabiy tanqid va tarjimachilik rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini yosh avlodga yetkazish, shuningdek, ijod va tarjima sohasidagi ilg‘or an’analarni davom ettirishdan iborat. Maktabning aynan ushbu oliy o‘quv yurtida tashkil etilishi bejiz emas. Zero, olim va mutarjim Ibrohim G‘afurov 2006–2012-yillarda shu dargohning Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida faoliyat yuritgan. Ustozning universitetdagi pedagogik faoliyati tarjimachilik ta’limi uchun muhim ilmiy-uslubiy manbalar yaratilishi bilan ham ahamiyatlidir. Jumladan, 2008-yilda olimning “Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish” nomli darsligi nashr etildi. Shuningdek, u Omon Mo‘minov va Nosir Qambarov bilan hamkorlikda 2012-yilda “Tarjima nazariyasi” o‘quv qo‘llanmasini yaratdi.

Ibrohim G‘afurov jahon adabiyotining o‘nlab mumtoz namunalarini, xususan, Dostoyevskiy, Mopassan, Xeminguey, Markes, Joys, Aytmatov kabi adiblarning mashhur asarlarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilib, badiiy tarjimachilik sohasida o‘ziga xos ijodiy maktab yaratdi. Ulug‘ yoshda bo‘lishiga qaramay, mohir so‘z san’atkorining serqirra iste’dodi Yangi O‘zbekiston sharoitida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Mutafakkir adib mamlakatimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, milliy adabiyotimiz va san’atimizni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayonida umrining oxiriga qadar faol ishtirok etdi.

Zahmatkash olim, atoqli adib, yoshlarning mehribon ustozi, samimiy va kamtarin inson Ibrohim G‘afurovning betakror ijod maktabi yosh mutarjimlar faoliyatida yaqin ko‘makchi bo‘lishi shubhasiz.

**Abbos SHOYIMOV**




# O‘zimizning O‘Z g‘oyamiz

Boshlanishi 1-sahifada.

Muhim minerallarni qazib olish va qayta ishlash, energetika, transport, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan. O‘zbekiston uchun esa muhim shart – faqat xomashyoni eksport qilmasdan, uni mamlakat ichida qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratishdir. Investorlarga tayyor infratuzilma va loyihalar taklif etish ko‘zlangan natijaga yordam berishi mumkin, lekin bu jarayon shaffof qoidalar va mahalliy biznesning ishtiroki bilan ta’minlanishi zarur.

Samarqandda o‘tkazilgan muzokaralar klassik “win-win” (har ikki tomon manfaati) tamoyili asosida qurildi. Davlatimiz rahbari tomonidan taklif etilgan 2035-yilgacha bo‘lgan hamkorlik dasturi AQSHdagi siyosiy ma’muriyatlar almashsa ham, iqtisodiy va texnologik aloqalar to‘xtab qolmasligini kafolatlaydi. Toshkentda Vebster, Amerika texnologiyalar universiteti va Kolorado konchilik maktabi markazlarining ochilishi milliy kadrlar salohiyatini jahon standartlari darajasiga ko‘taradi.

O‘zbekistonning tashqi siyosiy falsafasi muvozanatli, ko‘p vektorli va pragmatik diplomatiyaga tayanadi. Marko Rubioning Samarqandga tashrifi va erishilgan bitimlar ana shu muvozanatning yorqin namunasidir.

Samarqand yana bir bor Markaziy Osiyoning diplomatik markazi ekanini namoyish etdi. O‘zbekiston “C5+1” formatida nafaqat o‘z manfaatlarini, balki butun mintaqaning tranzit, energetika va ekologik birligini ilgari surmoqda. Bu yon qo‘shnilarning ham global jarayonlarda ovozi eshitilishiga xizmat qiladi. Transkaspiy yo‘nalishini rivojlantirish va uni AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan loyihalar bilan tutashtirish mintaqaning dengizga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va geosiyosiy qaramlikni keskin kamaytiradi.

## DAVLAT TILI: O‘ZLIKNI ASRASH VA TARAQQIY VOSITASI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigi ona tilimizni qadrlash, uning imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy hayotdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan muhim dasturilamal bo‘ldi. Tabrikning asosiy g‘oyasi shundaki, til faqat muloqot vositasi emas. U xalqning xotirasi, ma’naviyati va tajribasini o‘zida mujassam etadi. Inson ona tili orqali o‘zligini anglaydi, oilasi va Vataniga bo‘lgan mehrini ifoda etadi. Shu ma’noda, o‘zbek tilining taraqqiyoti milliy o‘zlikni asrash bilan birga, mamlakatning zamonaviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Tabrikda zamonaviy ilmiy manbalar, sifatli tarjimalar va sohaviy adabiyotlarga ehtiyoj ham qayd etilgan. Tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot va boshqa yo‘nalishlarda o‘zbek tilidagi ishonchli bilim manbalarini ko‘paytirish tilning ilm-fan tili sifatida rivojlanishi uchun muhimdir.

Bu jarayon tilshunoslar, tarjimonlar, olimlar va soha mutaxassislarining hamkorligini talab qiladi.

Tabrikda o‘zbek tilining raqamli muhitdagi imkoniyatlarini kengaytirishga alohida urg‘u berilgani zamon talabiga mosdir. Elektron lug‘atlar, sifatli tarjima va tahrir vositalari, nutqni matnga va matnni ovozga aylantiruvchi dasturlar ta’lim, mehnat va kundalik hayotda odamlarga qulaylik yaratishi mumkin. Sun’iy intellekt vositalarining o‘zbek tilidagi sifati ham muhim masala. Buning uchun sifatli matn va nutq namunalari bazasini shakllantirish, o‘zbek tilida ishlaydigan raqamli mahsulotlarni rivojlantirish zarur. Bunda shaxsiy ma’lumotlar va mualliflik huquqini himoya qilish qoidalariga ham qat’iy rioya etilishi kerak.

## QASHQADARYO: “KASBLI INSON HECH QACHON KAM BO‘LMAYDI”

Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi hududni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni ko‘zdan kechirish bilangina cheklanmadi. Tashrif davomida sanoat va qishloq xo‘jaligini chuqur qayta ishlash, “yashil” energetikani rivojlantirish va yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash kabi o‘zaro bog‘liq vazifalarga e’tibor qaratildi.

Qashqadaryo ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” bilan tanishuv ham tashrifning iqtisodiy mazmunini to‘ldirdi. Yangi korxonalar ishga tushishi malakali mutaxassislarga talabni oshiradi. Shuning uchun ta’lim dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirish, dual ta’limni rivojlantirish va yoshlarga amaliy ko‘nikma berish muhim.

“Kasblar shaharchasi”ning yana bir muhim jihati – bolalarni kasbga erta yo‘naltirishidir. Maktab o‘quvchilari axborot texnologiyalari, robototexnika va yashil energetikadan tortib agronomiya, oshpazlik va santexnikagacha bo‘lgan sohalarni sinab ko‘rib, o‘z qiziqishi va qobiliyatini aniqlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu kasb tanlashni tasodifiy qaror emas, puxta o‘ylangan tanlovga aylantirishga yordam beradi. Yil yakuniga qadar 500 nafar yoshni nemis tiliga o‘qitib, Germaniyada haq to‘lanadigan amaliyotga yuborish rejasi ham ta’lim va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirish namunasidir. Ammo bu imkoniyatning samarasi yoshlarning malakasi, til bilimi va orttirgan tajribasini keyinchalik o‘z hududida qo‘llay olishi bilan o‘lchanadi.

Prezidentning “kasbli inson hech qachon kam bo‘lmaydi” degan fikri tashabbusning mazmunini aniq ifodalaydi. Yangi korxonalar va investitsiya loyihalari malakali kadrlarga ehtiyojni oshirayotgan bir paytda, ta’limni ish beruvchilar talabiga moslashtirish, amaliyotni kuchaytirish va yoshlarni maqsadli tayyorlash ayniqsa muhim.

## BOLALAR FAROVONLIGI: ASOSIY MEZON

Samarqandda o‘tgan bolalar farovonligi bo‘yicha butunjahon sammiti hafta voqealarining inson manfaatlarini birlashtirgan muhim qismidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bolalar farovonligiga bag‘ishlangan xalqaro sammit ishtirokchilariga murojaatida muhim g‘oya ilgari surildi. Bolaning qadri kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishi yoki qancha daromad keltirishi bilan emas, uning bugungi ehtiyojlari va huquqlari bilan belgilanadi. Har bir bola mehr, xavfsizlik, ta’lim va tibbiy yordamga haqli. Murojaatda keltirilgan natijalar – onalar o‘limi va bolalar o‘sishdan ortda qolishining ikki barobar kamayishi, maktabgacha ta’lim qamrovining 27,7 foizdan 78 foizga oshishi, oliy ta’lim qamrovining 9 foizdan 45 foizga ko‘tarilishi – islohotlar ko‘lamini ko‘rsatadi. Inklyuziv maktablar sonining besh barobarga oshgani va nogironligi bo‘lgan bolalarning 85 foizdan ortig‘i ta’limga jalb qilingani ham e’tiborga molik. Biroq bu raqamlarning eng muhim mezoni – ular har bir bola va oilaning hayotida qanday o‘zgarish yaratayotganidir.

Murojaatning muhim jihatlaridan biri – bolani oila muhitida tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilganidir. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan xalqona hikmat bolaga befarq bo‘lmaslik va oilani yolg‘iz qoldirmaslikni anglatadi. Bu an’ana bolaning shaxsiy daxlsizligini hurmat qiladigan davlat kafolatlari, malakali ijtimoiy xizmatlar va ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan mustahkamlanishi kerak.

Prezident ilgari surgan “O‘Z” g‘oyasi ham shu mazmun bilan uyg‘un: o‘z qadrini anglash, o‘zganing qadrini hurmat qilish va kelajak uchun mas’uliyat olish.

Bola o‘z tili va madaniy ildizlarini anglagan holda, boshqa xalqlarga hurmat bilan qarab ulg‘ayishi lozim. Buning uchun unga savol berish, mustaqil fikrlash, ijod qilish va bilim olish imkoniyati yaratilishi kerak – millati, tili, e’tiqodi, salomatligi yoki oilasining daromadidan qat’i nazar.

Yana bir ustuvor vazifa – bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratish. Kiberbulling, ekspluatatsiya va shaxsiy ma’lumotlarni suiiste’mol qilish xavflariga qarshi kurashish bilan birga, bolalarning bilim olish va xavfsiz muloqot qilish imkoniyatlarini ham kengaytirish zarur. Bu ishda bolalar, ota-onalar va pedagoglar uchun raqamli savodxonlikka oid amaliy yordam muhim o‘rin tutadi.

Bolalarning o‘zlariga tegishli qarorlarda ishtirokini ta’minlash taklifi ham alohida ahamiyatga ega. Ular uchun yaratilayotgan xizmatlar haqida bolalarning fikrini eshitish, ularning tajribasini hisobga olish lozim. Bunday ishtirok yoshga mos, ixtiyoriy va xavfsiz tashkil etilishi shart. Samarqand platformasi shu yo‘nalishlarda tajriba almashish, qo‘shma loyihalar tayyorlash va natijalarni muhokama qilish uchun amaliy maydon bo‘lishi mumkin. Buning uchun deklaratsiyadagi umumiy niyatlarni mas’ullar, resurslar, muddatlar va o‘lchanadigan natijalar belgilangan rejalarga aylantirish zarur.

O‘tayotgan hafta tashqi siyosiy sheriklik, milliy til, hududiy iqtisodiyot va bolalar farovonligi bir-biridan ajralgan mavzular emasligini ko‘rsatdi. Iqtisodiy hamkorlikning samarasi mahalliy ish o‘rinlari va kadrlar tayyorlashda, til siyosatining samarasi ta’lim va xizmatlardan foydalanishda, bolalarga investitsiyaning natijasi esa ularning xavfsizligi va imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Endilikda asosiy vazifa – e’lon qilingan kelishuvlarni amaliy loyihalarga, investitsiyalarni barqaror ishlab chiqarishga, ta’lim tashabbuslarini kasbiy mahoratga, bolalar farovonligi haqidagi maqsadlarni esa har bir oila sezadigan o‘zgarishlarga aylantirishdir. Asosiy mezon ham shu.

**Iqbol MIRZO**

# EHTIROM AMALDA KO‘RINSIN

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaqinda esa davlat tilining imkoniyatlarini raqamli dunyoda kengaytirishga xizmat qiladigan yana bir muhim qadam tashlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning Google vitse-prezidenti Karan Bxatiya bilan O‘zbekistonda YouTube orqali milliy ijodkorlarning daromad olishi (monetizatsiya) imkoniyatlarini muhokama qilgani haqidagi xabar jamoatchilikda katta umid uyg‘otdi. Bu tashabbus zamirida ijodkorlar mehnatiga keng yo‘l ochish, milliy mahsulotlarni dunyo bozoriga olib chiqish hamda o‘zbek tilining virtual olamdagi ulushini oshirishdek ezgu maqsad mujassam.

Bugun til taqdiri faqat kitob javoni yoki sinfxona devori bilan chegaralanib qolmayapti, u qo‘limizdagi telefon ekranida ham hal bo‘lmoqda: internetda qaysi tilda qidiramiz, qaysi tilda javob olamiz va qaysi tilda ish topamiz? Ertaga farzandlarimiz o‘zlari o‘zlashtirgan zamonaviy bilimlarni qaysi tilda bayon etadi? Shu ma’noda, davlat tili kelajagiga oid savolning salmoqli qismi bugun mana shu kichik ekranlarga ko‘chib ulgurdi.

Har yili 21-oktyabr yaqinlashganda, ona tilimiz haqida chiroyli, balandparvoz gaplar ko‘p aytiladi. Albatta aytilishi kerak, chunki davlat tili maqomiga osonlikcha erishilmagan. Bu tarixiy xotiraga ehtiromimiz cheksiz. Biroq bayram minbarida ulug‘langan tilimiz ertasi kuniyoq biror-bir idoraning elektron darvozasida yoki raqamli dasturida ko‘rinmay qolayotgani chatoq. Tantanalarda ona tilimizning boyligini maqtab, ish joyimizga qaytgach esa, unda bitta ravon xat yoza olmasak, ehtiromimiz quruq so‘zdan nariga o‘tmay qoladi. Unutmaslik kerakki, tilning asl qadri uning sha’niga aytilgan maqtovlar bilan emas, o‘sha tilning qanchalik keng muloqot doirasi borligi bilan o‘lchanadi.

O‘ylab ko‘ring: bugun idora arizasi, shartnoma, yo‘riqnoma va raqamli xizmatlar aholiga haqiqatan sof o‘zbek tilida yetib boryaptimi? Bu savolni o‘rtaga tashlash erishilgan yutuqlar qadrini aslo kamaytirmaydi, aksincha, ularning real hayotdagi ijrosi yuzasidan mas’uliyatimizni oshiradi, mudrayotgan idrokimizni ravshanlashtiradi. Keling, telefon ekraniga yana bir diqqat qarataylik. Aytaylik, O‘zbekistondagi biror bir davlat yoki xususiy tashkilotning saytini ochdingiz. Foydalanuvchi sifatida hali o‘z xohishingizni bildirmagan bo‘lsangiz-da, sahifa sizni negadir boshqa tilda kutib oladi. O‘zbekcha variantini topish uchun esa ekran burchagidagi kichik tugmachani qidirishga majbur bo‘lasiz. Topgan taqdiringizda ham, ba’zan tarjima qilinmagan bo‘limlarga yoki eskirib ketgan xabarlarga duch kelasiz. Mana shu holatning o‘zi e’tibor qaratilishi va tuzatilishi zarur bo‘lgan muammodir. Albatta, bu kamchilik barcha saytlarga taalluqli emas. Lekin loaqal bitta davlat idorasining saytida uchrasa ham, uni isloh qilish lozim.

Aslida, milliy saytga birinchi bor kirgan har bir vatandoshimiz qarshisida, eng avvalo, to‘laqonli o‘zbekcha sahifa ochilishi lozim. Boshqa tilni afzal ko‘rgan foydalanuvchilarning tanlovi va xohishi ham saqlangan holda, albatta. Chunki davlat tilining yuksak maqomi raqamli dasturlarning eng mayda sozlamalarida ham sezilib turishi



kerak. Bunda sayt buyurtmachisi, uni qabul qilib olgan tashkilot rahbari, axborot xizmati va texnik ijrochilarning har biri o‘z vazifasiga chuqur mas’uliyat bilan yondashsa, ish sifati ortadi. Shu bois, til bo‘yicha maslahatchilar faqatgina bayram tadbirlarini tashkil etish bilan cheklanmay, raqamli kontent ustida ishlashga ham yo‘naltirilishi lozim.

Yana bir muhim jihat. Bugun sun’iy intellektga savol bersak, u bizga o‘zbek tilida javob qaytarmoqda. Ammo bundan “raqamli olamda o‘zbek tili mukammal shakllandi”, degan tezkor xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Chunki elektron qurilmaning tayyor yozma matn taqdim etishi boshqa, jonli o‘zbekcha ovozni to‘g‘ri tanishi va farqlashi mutlaqo boshqa masala. Inson nutqini matnga xatosiz aylantirish, matnni tabiiy ovoz bilan o‘qib berish, tasvirlarga to‘g‘ri subtitr joylashtirish yoki dasturlarning interfeysini o‘zbekchalashtirish – bularning har biri katta ilmiy va texnik mehnat talab qiladigan alohida yo‘nalishlardir.

To‘g‘ri, Gemini xizmatining tillar ro‘yxatida o‘zbek tili paydo bo‘ldi, Telegram uchun ham o‘zbekcha tarjima mavjud. Ammo asl muammo mana shu imkoniyatlarning sifatida, to‘liqligi va boshqa ko‘plab yirik xalqaro platformalarga ham yetib borishidadir. Ayni paytda Google AdSense tizimi o‘zbek tilini veb-saytlarning asosiy kontent tili sifatida hali ham tan olmagan. Bu borada jahonning yirik texnologiya kompaniyalari bilan kechikishlarsiz, jiddiy va tizimli muzokaralar olib borish ehtiyoji bor. Biroq bunday muloqotlarda umumiy norozilik yoki hissiyotlardan ko‘ra, aniq, ilmiy va texnik asoslangan talablar bilan chiqish ko‘proq samara beradi.

Qaysi platformada qaysi xizmatimiz yetishmayapti? O‘zbekcha so‘zni qaysi dastur noto‘g‘ri eshityapti? Qaysi tizim kirill alifbosini o‘qib, lotinda adashyapti? Avvalo, mana shunday muammolarning aniq ro‘yxatini tuzib olish zarur. Raqamli texnologiyalar vazirligi mutaxassislari, tilshunos olimlar, dasturchilar va universitetlar jamoasi hamkorlikda bunday kompaniyalarga tayyor yechim va loyihalarni taqdim eta olishi lozim. Biz ularga matnlar bazasini, muallif roziligi bilan yozilgan ovozli ma’lumotlarni, tekshirilgan atamalar va sinov savollarini berishimiz, tilimizning texnik imkoniyatlarini o‘z kuchimiz bilan kengaytirishimiz shart. Ana shundagina ona tilimiz nafaqat raqamlashadi, balki dunyoning eng taraqqiy etgan va madaniyatli tillari qatorida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

Tilimizning raqamli kelajagini qurishda qonuniylik, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi va bolalar xavfsizligi hamisha bosh mezon bo‘lib qolishi zarur. Buning uchun ochiq va qonuniy foydalanishga rasman ruxsat berilgan sifatli o‘zbekcha manbalarni tizimli ravishda ko‘paytirib borish lozim. Qolaversa, yaratilayotgan yangi dastur va tizimlarning natijasini faqat poytaxtdagi bir guruh mutaxassislar emas, balki yurtimizning turli hududlarida yashayotgan oddiy foydalanuvchilar ham o‘z kundalik hayotida sinab ko‘rishi maqsadga muvofiq. To‘g‘ri, adabiy tilimiz umumiy raqamli muloqotni ta’minlaydi, ammo nutqni tanish texnologiyalarida jonli shevalar ham chetda qolib ketmasligi kerak. Zero, o‘z ona tilida, mahalliy shevasida gapirgan vatandoshimizning oddiygina savolini tushunmagan dasturni xalqqa “tayyor raqamli xizmat” sifatida taqdim etish mumkin emas.

Aslida, tilni asrash – uni hayotning mana shunday yangi, zamonaviy sohalariga faol olib kirishni anglatadi. Agar bola internetda texnika yoki texnologiya haqidagi savoliga o‘zbek tilida puxta javob topolmasa, tabiiyki, axborotni boshqa tilda izlaydi. Bundan, albatta, chet tilini yomon ko‘rish kerak, degan xulosa chiqmaydi. Chet tilini bilish – inson uchun fazilat. Ammo raqamli olamda o‘zbekcha bilim va kontent yetishmasligi tufayli ona tilimiz faqat uy-ro‘zg‘or darajasida qolib ketsa, eng katta ma’naviy boyligimizni yo‘qotamiz. Keyinchalik eng yangi ilmiy tushunchalarni o‘zbekcha tushuntirish yanada qiyinlashib boraveradi. Raqamli dunyodagi bu bo‘shliqni bugun to‘ldirmasak, ertaga uning bahosi bizga juda qimmatga tushishi tayin.

Aynan mana shu nuqtada O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva tomonidan ko‘tarilgan xalqaro platformalar bilan hamkorlik masalasining ikkinchi katta ma’nosi ochiladi. Internet makonida o‘zbekcha kontentni ko‘paytirish uchun milliy ijodkorlarni faqat fidoyilikka chaqirishning o‘zi yetarli emas. Internetda biz ko‘radigan bittagina kichik videorolik ortida ssenariy muallifi, rejissyor, operator, muharrir, ovoz ustasi, montajchi va bir talay ijodkorlarning katta mehnati yotadi. Ularning hammasi doimiy ravishda bepul ishlamaydi-ku.

Qachonki, muallif o‘z intellektual mehnatidan qonuniy va munosib daromad topsa, unda yangi, yanada sifatli mahsulotlar yaratish ishtiyoqi va imkoniyati kengayadi. Demak, tilning virtual olamdagi mavqeyi unga yaratilgan iqtisodiy sharoitlarga ham bevosita bog‘liq.

Bolalar uchun mo‘ljallangan bilim, badiiy adabiyot, tarix, ilm-fan hamda huquqiy va tibbiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladigan ijobiy mahsulotlar uchun ochiq grantlar va tanlovlar tizimini yo‘lga qo‘yish ham davlat tili rivoji uchun juda muhim. Bunda matnlarni tahrirlash, tarjima qilish va subtitr tayyorlash kabi texnik xarajatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish imkoni ham yaratiladi.

Endi xayolan vaqtli matbuot tahririyatiga kirib ko‘raylik. Gazetaning yangi soni tayyor, deylik. Sahifalarda kechagi mehnat, bugungi dolzarb savollar va ertangi kun haqida teran mulohazalar aks etgan. Bosmaxonada qog‘ozga tushgan mana shu qutlug‘ so‘z endilikda internet kengliklarida ham o‘z o‘quvchisini topishi zamonaviy axborot makonining talabidir. Agar gazeta chiqqan kuni uning rasmiy saytida o‘sha son yangilanmasa, virtual dunyoda shunchaki bir kunlik son emas, balki butun bir muloqot tizimi boy beriladi. Yangilik va tahlilni kutib turgan zamonaviy o‘quvchi boshqa tezkor manbalarga o‘tib ketadi.

Vaholanki, buning uchun avvalo o‘quvchi kiradigan raqamli eshiklarni ochib qo‘yish lozim. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida gazetaning har bir yangi soni bosib chiqarilgan zahoti uning mukammal elektron nusxasi ham internetga joylanishi foydaliroq bo‘ladi.

Tahririyatlar faqat fidoyilik bilan yashay olmaydi. Bu borada elektron obuna, raqamli kutubxonalar orqali jamoaviy foydalanish tizimi, ochiq maqolalar va pulli arxiv xizmatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish mumkin. Milliy kutubxona bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, nashrlarning elektron sonlarini uzoq muddat xavfsiz saqlash tizimini yaratishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

Endi geografik xaritaga kengroq nazar tashlaylik. Amudaryoning narigi qirg‘og‘ida, qolaversa, uzoq va yaqin atrofda ham o‘zbek tilida so‘zlashadigan millionlab el mavjud. Xo‘sh, qo‘shni Afg‘onistondagi yoki boshqa xorijiy davlatlardagi o‘zbek o‘quvchilariga bizning gazeta, jurnal, badiiy kitoblar va zamonaviy darsliklarimiz qanday yetib boradi? Masalan, Afg‘onistonda arab yozuviga asoslangan o‘zbekcha imloda matn o‘qiydigan ulkan bir auditoriya bor. Umuman, bunday raqamli va imloviy to‘siqlar dunyoning turli hududlarida va qo‘shni davlatlarda yashayotgan ko‘plab tildoshlarimizga juda tanish. Shu bois, ma’rifiy materiallarni qo‘shni xalqlar va xorijdagi vatandoshlar o‘qiydigan o‘sha tarixiy yozuvda (masalan, arab imlosida) ham sifatli taqdim etish tilimizning sofligini va ta’sir doirasini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, matnlarning audio shaklini ham yaratib, tinglab o‘rganuvchilar uchun juda qulay imkoniyat yaratish mumkin.

Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro minbarlarda ona tilimizga ko‘rsatgan yuksak ehtiromni biz ham o‘z ish joyimizda, kundalik faoliyatimizda davom ettirishimiz ham qarz, ham farz. Ona tilimizga sadoqatimiz balandparvoz gaplarda emas, amaliy ishlarimizda ko‘rinsin.

**Abdulhamid MUXTOROV**

## ONA TILIM



**Ming yillarki bulbul kalomi**
**O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.**
**Ammo sho‘rlik to‘tining holi**
**O‘zgalarga taqlid hamisha.**

**Ona tilim, sen borsan shaksiz,**
**Bulbul kuyin she’rga solaman.**
**Sen yo‘qolgan kuning shubhasiz**
**Men ham to‘ti bo‘lib qolaman.**

**Abdulla ORIPOV**

BELLASHUV

# SO‘Z LATOFATIGA MAFTUN

**O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 90 yilligi hamda O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan 21-22-oktyabr kunlari Bo‘stonliq tumanidagi Green Hills Resort maskanida “E VOH–2026” respublika olimpiadasining taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida Xalqaro Nordik universiteti va “UzReport” axborot agentligi tomonidan Ta’lim va ilm-fan vazirligi, Fan olimpiadalari markazi hamda Bolalar ombudsmani hamkorligida amalga oshirilayotgan mazkur bellashuvda 16 mingga yaqin o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari ishtirok etib, ulardan 72 nafari yakuniy bosqichda bellashdi. Final bosqichida ishtirokchilar insho yozish va test topshiriqlarini bajarish orqali o‘z bilimlarini namoyon etdilar. O‘n nafar hakamdan iborat hay’at ularning nazariy tayyorgarligi, mustaqil fikrlashi, yozma nutqi va adabiy savodxonligini baholadi.

Olimpiadaning buyuk shoir Erkin Vohidov nomi bilan atalishi bejiz emas. Shoir merosini ta’lim jarayoni bilan bog‘lash – yosh avlodni adabiyotga oshno etish, ularda ona tiliga muhabbat va milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish demakdir.

Taqdirlash marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, ta’lim sohasi mutasaddilari, taniqli shoir va adiblar, diplomatik korpus, xalqaro tashkilotlar vakillari, pedagoglar, yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Festivalning badiiy-ma’rifiy dasturi, she’rxonlik va adabiy uchrashuvlar ona tilimizning xalq tarixiy xotirasi, ruhiy dunyosi va milliy o‘zligini saqlovchi bebaho boylik ekanini yana bir bor namoyon etdi.

**Iftixor XONXO‘JAYEV**




OLAM OLIMI



# Jon Richard XIKS

## umumiy iqtisodiy muvozanat va farovonlik nazariyasini rivojlantirgan nobelchi

**Jahon iqtisodiy tafakkuri tarixida muhim o‘rin egallagan buyuk olimlardan biri Jon Richard Xiksdir. Uning ilmiy tadqiqotlari iqtisodiy muvozanat, iste’molchilar tanlovi, ish haqi, kapital va iqtisodiy o‘sish nazariyalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.**

### FAOLIYAT

Jon Richard Xiks 1904-yil 8-aprelda Buyuk Britaniyaning Uorik shahrida tug‘ilgan. U Oksford universitetining Balliol kollejida tahsil olgan. Keyinchalik London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi, Kembrij, Manchester hamda Oksford universitetlarida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan. Xiks iqtisodiy nazariyani chuqur tahlil qilish, matematik usullarni qo‘llash va bozorlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntirishga alohida e’tibor qaratgan olim sanaladi. Uning ilmiy qarashlari mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

### HISSA

Olimning eng muhim ilmiy yutuqlaridan biri umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasini rivojlantirgani bilan bog‘liq. U turli bozorlar, iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, iqtisodiy tizimning ishlash mexanizmlarini tushuntirishga hissa qo‘shdi. Uning 1939-yilda nashr etilgan “Qiymat va kapital” (“Value and Capital”) asari iqtisodiy nazariyaning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Asarda iste’molchilar tanlovi, bozor muvozanati va iqtisodiy munosabatlar nazariy jihatdan yoritilgan.

Xiksning yana bir muhim xizmati – tovarlar va pul bozorlaridagi muvozanatni tahlil qilish, foiz stavkasi hamda milliy daromad o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan IS-LM modelidir. Olim ish haqi, bandlik, kapital jamg‘arilishi va iqtisodiy o‘sish masalalarini ham tadqiq etgan. Uning “Ish haqi nazariyasi” (1932), “Kapital va iqtisodiy o‘sish” (1965) hamda “Iqtisodiy tarix nazariyasi” (1969) kabi asarlari iqtisodiy fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan.

### E’TIROF

1972-yilda Jon Richard Xiks amerikalik iqtisodchi Kennet Errou bilan birgalikda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Mukofot ularning umumiy iqtisodiy muvozanat va farovonlik nazariyasini rivojlantirishdagi kashshoflik hissasi uchun berildi.

Xiksning ilmiy ishlari bugungi kunda ham oliy ta’lim muassasalarida o‘rganiladi. Uning nazariy yondashuvlari iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, bozor mexanizmlarini tushunish va iqtisodiy siyosatni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olim 1989-yil 20-mayda vafot etgan. Uning ilmiy merosi zamonaviy iqtisodiy tafakkur rivojida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

**Jasmina ISROIL**
**tayyorladi.**

TAHLIL VA TAKLIF

# TIL va KELAJAK

**UYG‘UNLIK**

**Bugungi dunyoni kompyuter va internet-siz tasavvur qilish qiyin. Inson ma’lumotni telefondan oladi, kompyuterda matn yozadi, elektron lug‘atdan foydalanadi, sun’iy intellekt bilan muloqot qiladi. Bugun o‘zbek tili ilm-fan tili bo‘lishi, zamonaviy sohalardagi murakkab tushunchalarni ifodalay olishi, raqamli muhitda ishlashi, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foyda-lanishi zarurligi to‘g‘risida Davlatimiz rahbarining taklif va topshiriqlari bevosita lotin yozuviga asoslangan alifbomizga muayyan o‘zgarishlar kiritishni taqozo etayotgan edi. Bu bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar olib borildi. Jamoatchilikning fikr va takliflari atroflicha o‘rganildi.**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 21-oktyabr kuni lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirishga qaratilgan qonunni imzoladi. Unda amaldagi 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi o‘rniga 28 ta harf va bitta tutuq belgisidan iborat alifboni nazarda tutuvchi o‘zgartishlar ko‘zda tutilgan. Taklifga muvofiq, alifbodagi to‘rtta harf, ya’ni, O‘ o‘ harfi Ö ö, G‘ g‘ harfi Ğ ğ, Sh sh birikmasi Ş ş, Ch ch birikmasi esa Ç ç shaklida ifodalanadigan bo‘ldi.

Harflarning shakli va qo‘llanish tartibi matnni qanday terishimiz, saqlashimiz, qidirishimiz, tahrirlashimiz va boshqa tillar-ga moslashtirishimizga ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, elektron hujjatlar, raqamli kutub-xonalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari, lug‘atlar va til korpuslari bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Takomillashtirilgan alifbo tilimizning tovush xususiyatlarini yozuvda aniqroq ifodalash, bir tovushning turli belgilar orqali yozilishi bilan bog‘liq chalkashliklarni kamaytirish va matnlarni raqamli muhitda qayta ishlashni osonlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘zbek tilining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, alifbo islohoti tilimizning boy imkoniyatlarini yangi avlod vositalari orqali yanada keng namoyon etishga yo‘l ochadi.

Yangi tahrirdagi alifboga o‘tish davrida amaldagi alifbo asosida rasmiylashtirilgan hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qog‘ozlarning muomalada bo‘lishiga to‘sqinlik qilinmaydi. Ayrim ramziy belgilar, peshlavha va ko‘rsatkichlardan ham ular yaroqsiz holga kelgunga qadar yoki belgilangan muddatigacha foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu yondashuv islohotning og‘riqsiz, bosqichma-bosqich, fuqarolar va tashkilotlar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Alifbo islohotining natijasi, avvalo, uning ta’lim va kundalik hayotga qay darajada izchil kirib borishi bilan belgilanadi. Maktabgacha ta’limdan boshlab maktab, oliy ta’lim, ilmiy tadqiqot va nashriyotgacha bo‘lgan jarayonlarda yozuv me’yorlarining uyg‘unligi savodxonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quv adabiyotlari, lug‘atlar, metodik qo‘llanmalar va elektron ta’lim resurslari yangi me’yorlar asosida bosqichma-bosqich yangilangani sari o‘quvchilar va talabalar uchun ham yagona yozuv muhiti shakllanadi.

Ilm-fan sohasida ham alifbo va imlo masalasi katta ahamiyatga ega. Ilmiy maqolalar, disser-tatsiyalar, bibliografik ma’lumotlar, elektron kataloglar va xalqaro ma’lumotlar bazalarida mualliflar, asarlar va atamalarning bir xil yozilishi axborotni topish va undan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi ilmiy merosni xalqaro ilmiy makonga olib chiqishda yozuvning barqarorligi muhim o‘rin tutadi.

**RAQAMLI MAKONDA TILNING HAQIQIY BAHOSI**

Bugun davlat xizmatlarining tobora ko‘proq qismi ekranga ko‘chmoqda. Fuqaro ariza topshiradi, bank ilovasidan foydalanadi, tibbiy ma’lumot oladi, farzandining ta’lim natijasini tekshiradi. Ana shu jarayonda o‘zbekcha interfeys mavjud, lekin yetarli emas. Agar tugma nomlari tarjima qilingan-u, ko‘rsatma tushunarsiz, xabar xato yozilsa qidiruv tizimi o‘zbekcha so‘rovni anglamasa, bunday xizmatni to‘laqonli o‘zbekcha deb bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham bugungi kunda o‘zbek tilini raqamlashtirish, sun’iy intellekt tiliga aylantirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘shildi. Shu bois ayrim mulohazalarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. O‘zbek tilini sun’iy intellekt tiliga aylantirish haqida gap ketar ekan, birinchi navbatda, davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan axborot tizimlari uchun “o‘zbek tilida ishlash sifati” alohida qabul mezoni bo‘lishi kerak. Bu mezon foydalanuvchi interfeysi, qidiruv, xatolik xabarlari, yordam bo‘limi, mobil moslashuv va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulaylikni qamrab olishi zarur. Yangi tizimlarni boshidanoq ko‘p tilli arxitekturada loyihalash, mavjudlarini esa texnik auditdan keyin bosqichma-bosqich moslashtirish talab etiladi. Barcha xususiy IT mahsulotlarini bir zumda majburiy o‘zbekchalashtirish esa xarajat, ijro va sifat nuqtayi nazaridan alohida baholanishi kerak.

Raqamli tilning eng muhim xususiyati mashina uchun ham tushunarli bo‘lishidadir. Bugun dastur so‘zning qo‘shimchasini ajrata olmasa, shaxs nomini noto‘g‘ri tanisa yoki turli imlodagi bir tushunchani bir-biriga bog‘lay olmasa, buni faqat texnik kamchilikka yo‘yib bo‘lmaydi. Bu kamchilik hujjat izlash, huquqiy axborotga kirish, xizmatdan foydalanish va ilmiy ma’lumotni topish imkoniyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu ma’noda til texnologiyasi endi filologiyaning tor sohasi emas, davlatning raqamli infratuzilmasi diqqat e’tiborida bo‘lmog‘i lozim.

**MILLIY KORPUS – TIL KELAJAGI**

O‘zbek tilining raqamli kelajagi uchun eng zarur poydevor ilmiy mezonlar asosida tuzilgan, doimiy yangilanadigan milliy til korpusi hisoblanadi. Korpus oddiy elektron kutubxona emas. U matnning manbasi, davri, uslubi, mavzusi va grammatik xususiyatlari haqida tartiblangan ma’lumotni ham o‘z ichiga oladi. Shundagina tilning real qo‘llanishi, so‘zning ma’no o‘zgarishi, yangi atamalarning tarqalishi, hududiy farqlar va uslubiy me’yorlar dalil asosida o‘rganiladi.

Bu yerda ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan masala bor: korpus hajmi sifatning o‘rnini bosa olmaydi. Millionlab tartibsiz jumlalarni yig‘ish bilan ilmiy ishonchli ma’lumotlar bazasi hosil bo‘lmaydi. Aksincha, manbasi ma’lum, janrlar bo‘yicha muvozanatlangan, tekshirilgan kichikroq korpus ayrim tadqiqotlar uchun ko‘proq qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun hisobotlarda faqat “necha million so‘z yig‘ildi?” deb emas, “qaysi janrlar qamrab olindi, xatolik darajasi qancha, tadqiqotchilar undan qanday foydalanmoqda?” degan savollar ham berilishi kerak.

O‘zbek tilida tibbiyot, huquq, moliya, muhandislik va axborot texnologiyalariga oid yangi tushunchalar kundan kunga ko‘paymoqda. Muammo xorijiy atamaning kirib kelishida emas, bir tushunchaning turli darslik, qonun, dastur va kasbiy hujjatda har xil nom bilan yurishidadir. Terminologik nomuvofiqlik ba’zan uslubiy noqulaylikdan ham oshib, noto‘g‘ri tushunish va amaliy xatoga sabab bo‘lishi mumkin.

Bu sohada ish boshlanmagan, deyish adolatdan emas. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 589-son qarori bilan Atamalar komissiyasi faoliyatiga oid tartib yangilangani, sohaviy lug‘atlar chop etilgani ma’lum. Biroq yetarli emas.

Menimcha, milliy terminologiya tizimining markazida ochiq, versiyalanadigan raqamli reyestr turishi lozim. Har bir atama uchun uning ta’rifi, sohasi, tasdiqlangan shakli, maqbul variantlari, ruscha va inglizcha muqobillari, manbasi, tasdiqlangan sanasi va oldingi tahriri ko‘rsatilishi kerak. Bu reyestr darslik muallifi, davlat xizmatchisi, tarjimon va dasturchi uchun birdek ishlashi zarur. Atama o‘zgarsa, uning qachon va nima sababdan o‘zgargani ham ochiq ko‘rinishi lozim.

**ILMIY MAQOLA QAYSI TILDA YOZILSA, FAN HAM O‘SHA TILDA YASHAYDI**

O‘zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi istiqboli alohida e’tiborni talab qiladi. Xalqaro ilmiy muloqotda ingliz tili yetakchi. Lekin bundan o‘zbek tilida ilmiy fikr yuritishning ahamiyati kamayadi, degan xulosa chiqmaydi. Aksincha, mamlakatda yaratilgan bilim jamiyatga o‘z tilida yetib bormasa, ilm-fan bilan kundalik hayot o‘rtasida masofa uzayadi.

Bu masalada bir noto‘g‘ri tasavvurni tuzatish zarur: o‘zbekcha matnni Scopus yoki Web of Science rad etadi, deyish adolatdan emas. Bu platformalar asosan jurnallarni muayyan sifat va tahririy mezonlar bo‘yicha baholaydi; alohida jurnallarning til siyosati farq qiladi. Shuning uchun muammoning yechimi “xalqaro bazalar o‘zbekchani qabul qilmaydi”degan da’voda emas, o‘zbek tilida sifatli, xalqaro talabga mos ilmiy nashrlar ekotizimini yaratishdadir. DOAJ, Scopus va Web of Science bir xil tizim emas, Google Scholar esa boshqa turdagi qidiruv va indekslash xizmatidir; ularni yagona ro‘yxat sifatida talqin qilmaslik lozim.

Milliy ilmiy jurnallar uchun maqsadli dastur ishlab chiqilsa, unda mustaqil taqriz, nashr etikasi, bibliografik standartlar, DOI, xalqaro tahrir hay’ati, ochiq metama’lumotlar va barqaror elektron arxiv asosiy o‘rinni egallashi kerak. Faqat indeksga kirish uchun muammo mablag‘ to‘lashda emas, jurnalning ilmiy sifatini oshirish ustuvor bo‘lsin. Indekslash – sifatning sababi emas, uning ayrim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Amaliy yechimlardan biri – ikki qatlamli ilmiy nashr modeli: maqolaning to‘liq matni o‘zbek tilida, kengaytirilgan annotatsiyasi, kalit so‘zlari va bibliografik ma’lumotlari ingliz tilida beriladi. Zarur hollarda, to‘liq inglizcha tarjima ham e’lon qilinishi mumkin. Bunda xalqaro ko‘rinuvchanlik va milliy ilmiy muloqot o‘rtasida ko‘prik quriladi. PhD tadqiqotchilari uchun akademik yozuv, ilmiy dalillash va tadqiqot etikasi bo‘yicha kurslar esa rasmiyatchilik uchun emas, real yozma ish va ekspert bahosi bilan yakunlanishi lozim.

**O‘ZBEK TILI VA JAHON**

O‘zbek tilining xalqaro mavqeyini oshirish uning o‘rganishga qulay metodika va ta’lim resurslarining mavjudligi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalaridagi ishtiroki bilan ham bog‘liq. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan amalga oshirilayotgan “O‘zbek maktabi” va UzAcademy loyihalari o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim materiallarini zamonaviy formatlarda taqdim etish va tilimizga qiziquvchilar uchun qulay o‘quv muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Xususan, “O‘zbek maktabi” tomonidan o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning CEFR talablari asosidagi milliy ta’lim ekotizimi yaratildi. A1, A2 va B1 darajalari uchun o‘quv dasturlari hamda “Xorijliklar uchun o‘zbek tili” darsliklari tayyorlandi.

Mazkur metodika universitet huzuridagi “O‘zbek maktabi”, xorijdagi O‘zbek tili va madaniyati markazlarida aprobatsiyadan o‘tka-zildi. Uning imkoniyatlari Oksford universite-tining O‘zbekshunoslik dasturi talabalari va tadqiqotchilari, Ka’ Foskari universitetining turkiy tillar yo‘nalishi tadqiqotchilari tomonidan ham sinovdan o‘tkazildi.

Uzacademy milliy raqamli ta’lim platformasi o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish bilan birga, O‘zbekiston tarixi, madaniyati va adabiyotini keng targ‘ib qilishga xizmat qiluvchi yagona raqamli ta’lim muhiti sifatida shakllantirildi. Unda A1–B1 darajalari uchun tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan raqamli kurslar ishlab chiqildi.

Chet el fuqarolari uchun o‘zbek tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikati berish tizimi joriy etilgan. Hozir A1, A2 va B1 darajalari bo‘yicha malaka sertifikati uchun imtihonlar o‘tkazilmoqda. 2027-yil 1-martdan boshlab B2, C1 va C2 darajalari bo‘yicha sertifikat berish tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

Yurtimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o‘z ona tili va qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uchun qanchalik sharoitlar yaratib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘zbek tilini o‘rganishlari uchun ham qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi qaroriga asosan Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi. Prezident qarori bilan ushbu markaz zimmasiga respublikada doimiy istiqomat qiluvchi, boshqa tillarda so‘zlashuvchi aholi uchun bepul o‘qitish kurslarini tashkil etish mas’uliyati yuklatildi, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik talabalar, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan va kirish istagida bo‘lgan xorijlik fuqarolar uchun pulli ta’lim xizmatlari yo‘lga qo‘yildi.

* * *

Til haqida qay darajada so‘zlashishimiz emas, shu tilga dunyoning ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish va uni xalqimiz hamda dunyo xalqlari uchun jozibador amaliy tilga aylantirishimiz o‘zbek tilimizning ertangi taraqqiyotiga mustahkam zamin bo‘ladi. Shuning uchun ham ona tilimizning tarixiy qadrini e’tirof etish bilangina cheklanib qolmay, uning kelajakdagi imkoniyatlarini – bola ta’lim oladigan, olim tadqiqot yozadigan, muhandis loyiha yaratadigan, fuqaro davlat bilan muloqot qiladigan va xorijlik do‘stlarimiz o‘zbek tilini sevadigan til sifatida qo‘llanishini kengaytirishimiz kerak. Davlat tilining kuch-qudrati ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishida ham namoyon bo‘ladi.



**Nozliya NORMURODOVA,**
**Alisher Navoiy nomidagi**
**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti**
**universiteti prorektori,**
**professor**

SAMIMIYAT

# USTOZLARIMDAN MINNATDORMAN

**Men yoshligimda o‘zbek tilini yaxshi bilmas edim. Dadam va ayam o‘zbek tilini o‘rganinglar, odam o‘z ona tilini bilishi kerak, derdilar. Lekin biz o‘qigan 1970 yillarda maktab, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tiliga ehtiyoj yo‘q edi. Men Toshkent politexnika institutida rus tili o‘qituvchisi bo‘lib ishlardim.**

“Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan yillarda rus guruhida o‘qiydigan talabalarga o‘zbek tilidan dars bera boshladim. O‘sha yillar-da o‘zbek tilining grammatikasini astoydil o‘rganishga kirishdim. Bir til grammatikasini yaxshi bilgan odamga boshqa tilning grammatikasini o‘zlashtirish qiyin emas. 1991-yilda oliygohimiz rektori Oqil Salimov edi. U kishining qabuliga kirib, meni rus tili kafedrasidan o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasiga o‘tkazishni iltimos qildim. O‘sha yillarda kafedrani taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Botirxon Akram boshqarardi. Men shu kishini chin ustozim deb bilaman. Chunki har kuni domla menga o‘zbek adabiyoti namoyandalari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mumtoz shoirlarimiz, ularning asarlari haqida juda ko‘p ma’lumotlar berardi. Shuningdek, u kishining ustozi Hamid Sulaymon va boshqa zamonaviy shoirlar ijodi haqida ham ko‘p qiziqarli bilimlarga ega bo‘ldim. Ustozimdan umrbod minnatdorman. Ustozimdan keyin o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini boshqardim, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olishga muyassar bo‘ldim.

Yana bir ustozim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor Qo‘chqor Xonazarov bo‘lgan. Domlaning rahbarligida nomzodlik dissertatsiyamni rus tilida himoya




qilgan bo‘lsam, oradan 14 yil o‘tib, doktorlik dissertatsiyamni o‘zbek tilida yozib, himoya qildim. Domla o‘zbek va rus tillarini mukammal bilar, ingliz tilini ham kasbdoshlariga o‘rgatar edi. Bir necha bor chet eldagi konferensiyalarda ingliz va fransuz tillarida ma’ruza ham qilgandi. Sobiq sovet davridagi faylasuflar ichida faqat Qo‘chqor Xonazarovning ismi Britaniya ensiklopediyasida qayd etilgan. Ustozim Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisi edi. U kishi 97 yoshda olamdan o‘tdi. Biz, shogirdlar ajoyib inson, oliyjanob ustozimizdan hayotda doimo ilmga intilishni, bar-cha qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish-ni, Vatanimizga, xalqimizga xizmat qilishni va ona tilimizni sevishni o‘rgandik.

Ish jarayonida o‘zbek tilida ko‘plab maqolalar, tezislar, o‘quv qo‘llanmalar yozdim. Shu bilan birga, she’riyatga qiziqib ancha she’rlar yozganman. Otam olamdan o‘tganida yuragimdan shunday she’r quyilib kelgan:

**Esimdadir, har kun ertalab**
**Bog‘-rog‘larni otam kezardi,**
**“Onajonim”, deya erkalab,**
**Peshonamdan asta o‘pardi…**
**Sizdan bugun qoldi yaxshi nom,**
**Odamlarni dildan sevgansiz.**
**Xalq mehriga sazovor inson,**
**Yurt qalbida tirik haykalsiz!..**

Ko‘p yillar Toshkent davlat yuridik universitetida o‘zbek va rus tillarida “Ma’naviyat asoslari” va “Milliy g‘oya” fanlaridan ma’ruzalar o‘qidim. Pedagogik faoliyatim davomida talabalarni o‘z ona tilimizni hurmat qilish va puxta bilishga, shuningdek, xorijiy tillarni ham o‘rganishga da’vat etaman.

Yaqinda “O‘zbek tili saboqlari” nomli o‘quv qo‘llanmam nashrdan chiqdi. Ushbu kitobim Vatanimizda yashayotgan barcha millat vakil-lariga, jumladan, ruscha o‘qi-gan o‘zbeklarimizga ona tilimizni o‘zlashtirishga yordam beradi, degan umiddaman.

O‘zbek tilidan rus tiliga she’r tarjima qilish menga zavq beradi. Ayniqsa, Halima Xudoyberdiyevaning “Muqaddas ayol”, Zulfiya Mo‘minovaning “Ayolga baxt bering”, Muhammad Yusufning “Vatanim” singari she’rlarini sevib tarjima qilganman. Bundan tashqari, Akbar Mirzoning “So‘nggi nido” romani, To‘lqin Hayitning “Annaning oq sochig‘i” qissasi va Tohir Malikning “Arafa” kinossenariysini rus tiliga tarjima qildim. O‘ylaymanki, bu ijodiy ishlarim o‘zbek adiblarining ajoyib asarlarini boshqa millat vakillariga tanishtirishga xizmat qiladi.



**Gulnora MANSUROVA,**
**falsafa fanlari doktori,**
**professor,**
**O‘zbekiston**
**Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

# BITIRUVCHI PORTRETI



**Nodir YUSUPOV,**
**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**Boshlanishi 1-sahifada.**

Bugungi tilga o‘girsak: olti yoshda maktabga kelgan bola o‘n to‘qqiz yoshida bilimli, diyonatli, Vatanini, dinini va millatini sevadigan, rostgo‘y va adolatli, insonga xos barcha fazilatlarni o‘zida jamlagan shaxs bo‘lib yetishadi. Bu jumlada portretning hamma unsuri bor: ta’lim qachon boshlanadi, qachon tugaydi va natijada qanday inson yetishadi.

Jadidlar “o‘qinglar” deb undash bilan cheklanmagan. Ular maktab qanday insonni tarbiyalashi kerakligini aniq tasavvur qilgan, hatto buning xarajatini ham hisoblab chiqqan. Bugun mamlakatimizda “o‘zbek maktabi bitiruvchisining portreti” ishlab chiqilayotgan ekan, uning chizgilarini bir ko‘rib chiqish foydadan xoli emas.

## ASOSIY BESH CHIZGI

**Mustaqil fikrlay olish.** Fitrat ota-onalar va muallimlarga maslahat beradi: bolalarni muhokama qilishga o‘rgating, yaxshi nima-yu, nima yomon ekanini dalil bilan tushuntiring, ular “ko‘r-ko‘rona taqlid” qilmasin. U hammaga tanish bir misolni ham keltiradi: ota-onalar va muallimlar bolaga go‘dakligidan Ko‘hiqof parilari haqida bema’ni xayollarni so‘zlab beradi, natijada u ulg‘aygach, “mushuk yursa ham, biron-bir sado chiqsa ham” vahimaga tushadi. Bu nima degani? Bolaga tayyor javobni emas, dalilga tayanib o‘ylashni o‘rgatish kerak. Bugun bu maslahat yanada dolzarb: ijtimoiy tarmoqlardagi har bir xabarga ishonib ketmaslik uchun aynan shu ko‘nikma kerak. Demak, bugungi portretdagi “mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish” talabi Fitrat taklifining mantiqiy davomidir.

**Til bilish.** Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda “Oyina” jurnalining birinchi sonida “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasini e’lon qildi. Uning fikricha, turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rus tillari kerak. Sababi amaliy: bu zamonda tijorat ham, sanoat ham, davlat ishi ham “ilmsiz bo‘lmaydur”. 1915-yilda esa dunyo ilmidan xabardor bo‘lish uchun rus, nemis, fransuz, ingliz, italyan, arab yoki yapon tillaridan birini bilish kerakligini yozdi. Behbudiy uchun til maqsadning o‘zi emas, dunyo bilimiga ochiladigan eshik edi. Prezidentimiz bu da’vatni “g‘oyat dolzarb” deb atagan. Bugun natija ham bor: 30-sentyabrdagi uchrashuv haqidagi xabarga ko‘ra, maktab davridayoq xorijiy til va fanlardan sertifikat olgan o‘quvchilar soni 100 ming nafarga yetgan. Davlatimiz rahbari bitiruvchilarga kamida bitta xorijiy til va bitta zamonaviy kasbni egallashni tavsiya qilgan.

**Kasb egasi bo‘lish, o‘z kuchiga tayanish.** Behbudiy o‘z davridagi muammoni juda aniq misollar bilan ko‘rsatadi: “Boshimiz og‘risa do‘qturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqga til yo‘q. O‘zimizdan do‘qtur yo‘q”. Uy qurmoqchi bo‘lsak, muhandis kerak, “ammo biz hanuz “muhandis” ismini bilmaymiz”. Yana bir misol: 30 yil oldin Samarqanddagi bir mahallada 300 nafar alochabof ishlagan, endi 30 tasi ham qolmagan. Sababini ham aytadi: Yevropa yangi asbob bilan yaxshiroq mato chiqaradi, bizda esa dastgohni yangilaydigan texnik ham, muhandis ham yo‘q.

Abdulla Avloniy shu fikrni iqtisodiy misol bilan tushuntiradi: yevropaliklar “o‘zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o‘zimizga yigirma besh tiyinga soturlar”. Ya’ni, xomashyo bizniki, foyda esa boshqaniki. Behbudiy buni bir jumlaga sig‘dirgan: “mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko‘rar”. Bu nima degani? Jadidlar uchun kasb faqat kun ko‘rish vositasi emas, millat mustaqilligining masalasi edi. O‘z shifokori, muhandisi va huquqshunosi bo‘lmagan xalq boshqalarga qaram bo‘lib qoladi.

Avloniy har qanday halol mehnatni hurmat qilishga chaqiradi. “Bu ko‘murchilik, bu temirchilik, manga munosib ish emas”, deb bekor yurishni u “zo‘r ayb” deb ataydi. “Tama’” bobida esa boqimandalikni qattiq qoralaydi: birovning qo‘liga qarab yashashga o‘rgangan odamdan ham, uning bolalaridan ham yaxshilik kutib bo‘lmaydi. Uning talabi sodda: har kim “o‘z kuchimiz ila” yashashi, “boshqalarga muhtoj bo‘lmay” ro‘zg‘or tebratishi kerak. Bugun Prezident ham shuni aytmoqda: mehnat bozori endi hujjatni emas, amaliy bilim, malaka va natijani so‘rayapti.

**O‘rganganini amalda qo‘llay olish.** Avloniy dars bilan tarbiyaning farqini bir jumlada aytadi: “dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi”. Masalan, ko‘chaga axlat tashlash yomon ekanini har bir o‘quvchi biladi, bu – dars. Axlatni tashlamaslik esa – tarbiya. Shuning uchun Avloniy muallimdan aytganiga, avvalo, o‘zi amal qilishini talab qiladi.

Fitrat irodani tarbiyalashga alohida e’tibor beradi: bola har ishni ota-onasining zo‘ri bilan qilsa, “irodasi zaif va nuqsonli bo‘ladi”. Ya’ni, bolaga, kichik bo‘lsa ham, o‘zi tanlash va tanloviga javob olish imkonini berish kerak. Bugun ham shu yo‘l tanlangan: 28-sentyabrdagi taqdimot haqidagi xabarga ko‘ra, yangi yondashuvda o‘quvchi har sinf yakunida nimani “bilishi va bajara olishi” aniq belgilanadi.

**Jamiyatga befarq bo‘lmaslik.** Portretning o‘zagi shu. Fitrat axloq tarbiyasining maqsadi insonni “jamiyatga foydasi tegadigan a’zo” qilib yetishtirish ekanini aytadi. Avloniy buni “olihimmat” deb ataydi – din va millatga foydali ishni mol va jon bilan qilish. Uning fikricha, “har ish himmat soyasida yuzaga chiqar”. Avloniy jamiyatni bir-biriga bog‘langan zanjirga o‘xshatadi, hamma bir-biriga muhtoj. Shuning uchun har kim o‘z vazifasini halol ado etishi lozim.

Bugungi tilda bu faol hayotiy pozitsiya deyiladi: insonning har bir harakati katta natijalarga olib keladi, bu harakat Vatan manfaatlari bilan uyg‘un bo‘lishi kerak, jamiyat rivojiga befarq qarab bo‘lmaydi, intilish esa, albatta, natija beradi. Darvoqe, Hamza Hakimzoda Niyoziy jadid maktablari uchun yozgan “Yengil adabiyot” to‘plamida buni bolalarga shunday yetkazgan:

***“Bizam millatga***
***ko‘p xizmat etamiz,***
***Uzoq o‘tmay***
***taraqqiyga yetamiz”.***

## JADIDLAR NIMAGA ULGURMADI?

Jadidlarning g‘oyalari tayyor edi, lekin ularga davlat tayanchi yetishmadi. Avloniyning Miroboddagi maktabini johil kishilar “kofir bo‘lding” deb yopib qo‘ygan. Behbudiy 1914-yilda yangi usul maktabida yoki rus tilida o‘qish kishini kofir qilmasligini “Oyina” jurnalida alohida tushuntirishga majbur bo‘lgan. Podshoh ma’muriyati yangi maktablarni qattiq nazorat ostiga oldi. Keyinroq esa jadidlarning o‘zlari qatag‘on qurboniga aylandi. 1922-yilda Turkiston va Buxorodan Germaniyaga o‘qishga yuborilgan yetmishga yaqin yoshlar haqida Prezidentimiz shunday degan: ular qatag‘on qilinmaganida, “butun jamiyatni o‘zgartirardi”.

Avloniy bu achchiq haqiqatni o‘z vaqtida yozib qoldirgan. Millatlar o‘ziga xizmat qilgan kishilarni qadrlash, ularga haykal qo‘yish, ular haqida yozish orqali taraqqiy etadi, deydi u. “Afsus, bizlar taqdir qilmak bir tarafda tursun, tahqir, masxara, hatto takfir qilmak ila qarshu olurmiz”. Ya’ni, biz ularni qadrlash o‘rniga ustidan kuldik, hatto kofirga chiqardik.

Bugun vaziyat boshqacha: islohotni davlatning o‘zi boshlab bermoqda, jadidlar nomi mukofot va stipendiyalarga berilmoqda. Lekin jadidlar yana bir saboq qoldirgan: maktabni faqat farmon bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Munavvar qori Abdurashidxonov va uning safdoshlari 1923-yilda yoshlarni “xalqni maorifga va maorifni xalqqa yaqinlashtirmoq uchun” qo‘lidan kelgan har bir choraga kirishishga chaqirgan. Maktab ota-ona, mahalla va tadbirkor bilan birga ishlagandagina, kutilgan natijaga erishish mumkin.

## AYRIM TAKLIFLAR

Jadid bobolarimizning boy merosidan kelib chiqib, bitiruvchi portreti ustida ishlayotgan mutaxassislar va yangi vazirlik e’tiboriga ayrim takliflarimizni havola etmoqchimiz.

**1. Portretni uch ustunga qurish.** Avloniy va Fitrat aytgan uch ustun – sog‘lom tan, mustaqil fikr, axloq va amal – portretning asosi bo‘lsin. Ularga Behbudiy aytgan “zamona odami”ning belgilari – til va kasb qo‘shilsin. Har bir belgi uchun o‘quvchi 4-, 9- va 11-sinf yakunida nimani bilishi va nima qila olishi yozib qo‘yilsin.

**2. “Turkiy guliston”dan amaliy mashg‘ulot.** Avloniyning “Sa’y va g‘ayrat”, “Intizom”, “Vijdon”, “Olihimmat”, “Atolat” (dangasalik) va “Tama’” (ta’magirlik) boblari sodda tilda, har biri bitta amaliy topshiriq bilan berilsa. Masalan, “Intizom” bobidan keyin o‘quvchi bir hafta davomida o‘z kun tartibini tuzib, unga amal qiladi.

**3. Ochiq imtihon.** Jadid maktablarida imtihonlar jamoatchilik oldida o‘tkazilgan. Bugun ham bitiruvchi o‘z loyihasini ota-onalar, mahalla va ish beruvchilar oldida himoya qilsin. Shunda portretdagi sifatlar qog‘ozda emas, amalda ko‘rinadi.

**4. “Jadidlar izidan” klublarida – o‘qishdan amalga.** O‘zbekiston Prezidentining 2026-yil 15-yanvardagi qarori bilan maktablarda “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublari tuzilgan, ularda yiliga kamida 20 ta kitob o‘qiladi. Yil yakunida har bir klub o‘z mahallasi uchun bitta foydali ish qilshi: kichik kutubxona ochishi, kichiklarga o‘qish to‘garagi tashkil etishi yoki obodonlashtirishda qatnashishi mumkin.

**5. Behbudiy hisob-kitobi – bugun.** Tadbirkorlar mablag‘ni hashamatli to‘y o‘rniga ta’limga yo‘naltirsin: korxonasida o‘quvchilarga amaliyot o‘rni va ustoz ajratsin, iqtidorli bolaga stipendiya tayinlasin.

**6. Avloniy mukofotining mezoni – o‘quvchidagi o‘zgarish.** Mukofot berilganda, olimpiada medallari bilan birga, o‘quvchilarning loyihalari, kasbiy ko‘nikmalari va jamiyatdagi faolligi ham hisobga olinsin.

**7. Har bir oilaga portret.** Avloniy tarbiyaning birinchi bo‘g‘ini uy ekanini aytgan. Portret ota-onalarga bir sahifalik sodda yo‘riqnoma shaklida yetkazilsin: bolaga uyda qanday vazifa va mas’uliyat berish mumkinligi aniq yozilsin.

## “KELAR ZAMON UCHUN HOZIRLANAYLUK”

Behbudiy 1915-yilda shunday yozgan edi: “Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas”. Bolani o‘zimiz o‘sgan zamonga emas, u yashaydigan zamonga tayyorlashimiz kerak. Jadidlar portretning chizgilarini bir asr oldin chizib ketgan. Uni hayotga ko‘chirish endi bizning zimmamizda. Avloniy bu ishning bahosini aniq aytgan: “tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”.



> **O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar.**
>
> **Abdulla QODIRIY**

**BIRLASHSAK – VATANMIZ!**

# OG‘ZIBIRCHILIK VOSITASI




**Bugun ona tilimiz to‘g‘risida ko‘plab she’rlar bitilmoqda, maqolalar yozilmoqda, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali fikrlar bayon etilmoqda. Bu ovozlarda MILLIY BIRLIKni, OG‘ZIBIRCHILIKni his qilasiz. Millat uchun kuyunchaklikni ko‘rasiz. Bu qanday yaxshi!**

**Men til haqda so‘z bitayotganda, onam haqida, otam haqida, Vatan haqida yozayotganday bo‘laman. Xo‘sh, milliy til nima o‘zi? Bu jahon sahnida millatning yashamog‘i unga qay darajada bog‘liq?**

Keling, mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan ayrim raqamlarga qarab ko‘raylik. Aytishlaricha, dunyoda to‘qqiz mingga yaqin til mavjud bo‘lgan ekan. Bu tafakkur doirasida o‘rganilgani. Ehtimol, ilgari undan ham ko‘p bo‘lgandir. Bugungi manbalarning ayrimlari hozir olti mingga yaqin til borligini, ayrimlari 5600 atrofida ekanini qayd etmoqda. Bu qaydlarning turlicha ekaniga ham sabab bor: bugun bir oyda ikkita til muomaladan chiqib ketmoqda.

Umuman olganda, tillar nega yo‘qoladi? Buning bir necha sabablari bor. Birinchisi – mustamlakalik. Bir bosqinchi davlat ikkinchisini mavh etgach, milliy yozuv, atama, milliy an’analar kabilarni yo‘q qilib, turli usullar bilan unga o‘z tilini singdirishga intiladi. Tarixda bunday holatlar, afsuski, ko‘plab sodir bo‘lgan. Ikkinchisi, ekologik migratsiya tufayli bir xalqning boshqa hududga ko‘chib o‘tib, asta-sekin borgan joy tilida so‘zlasha borishi oqibatida o‘z tilini unutishi. Uchinchisi, ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi xalqning zavol topishi, qirilib ketishi. Tili bor-u, yozuvi bo‘lmagan xalqlarning tili ham yo‘qolishga mahkum bo‘lishi mumkin. Masalan, mutaxassislar bugun turli tilda so‘zlashadigan Afrika xalqlarining sakson foizi o‘z yozuviga ega emasligini qayd etadi. Til saqlanib qolishi uchun unda kamida million odam so‘zlashishi kerak, deya e’tirof etiladi va mana shunday tillar bugun olti mingning orasida ikki yuz elliktani tashkil etar ekan. Shu ikki yuz ellik orasida bizning tilimiz ham bor! Olti ming ichidan faqat ikki yuziga davlat tili maqomi berilgan.

Taniqli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning qayd etishicha, olimlar buyuk yozuvchi va shoirlar so‘z boyligini sarhisob qilganida, Pushkin 21 ming 197 ta betakror so‘z qo‘llagani, Shekspirda bu raqam 20 mingga yaqinlashgani ma’lum bo‘lgan. Navoiy qo‘llagan so‘zlar 26 mingta ekan. Bu tilda har qanday voqelikni mukammal ifoda etish, har qanday badiiy asarni sayqallash mumkin.

Gohida hayron qolaman, mana shunday boy tilimizdan so‘z topolmay, ayrim millatdoshlarimiz fikrlarini ifoda etishda boshqa tildagi so‘zlarni qo‘llaydilar. Uzoqqa bormay, yozuvchimiz Habib Siddiqning Amerikadan o‘zbek tilini bilgan holda, endi o‘zbekcha urf-odatlarni ham mukammal o‘rganish uchun kelgan “Amerikalik qo‘shnilar” haqidagi hajviyasiga yuzlanaylik, negaki, u aynan hayotimizdan olingan:

*“– Biz odatda huv anovi perekrestkadan banyaning oldigacha aytamiz.*

*Qo‘shnim (amerikalik) hech narsa tushunmadi.*

*– Hammomning deng, – eslatdi xotinim. Darrov gapimni o‘ngladim.*

*– Chorrahadan hammomgacha.*

*Shundagina gapimni anglagan mallavoyning yuz-ko‘zida tabassum zohir bo‘ldi.*

*– Uchastkavoyniyam aytib qo‘ying, – dedim.*

*– Kimvoy? – hayron bo‘lib so‘radi u (amerikalik qo‘shni). Yana tilimni tishladim.*

*– Ha, anovi nozirimizni aytaman-da.*

*Bunaqa hollar tez-tez takrorlanadigan bo‘lib qoldi. O‘z yurtida sof o‘zbek tilini ixlos bilan o‘rgangan qo‘shnilarimizga chetdan kirib qolgan so‘zlar guruchdan chiqqan toshdek g‘ashga tegardi. Sal o‘ylabroq gaplashmasak, bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Har gal gapimni anglatishga qiynalganimda, xijolatdan ter bosadi...”*

Endi, shahar markazlariga borib, bir aylanib ko‘ring va qurilayotgan uylarga nazar soling: “Golden house”, “House near Tashkent”, “BUSINESS HOUSE RESIDENCE”, “Star House”, “Better Best” kabi yozuvlarga ko‘zingiz tushadi. Do‘konlarga esa “Boutique” deb yozib qo‘yishibdi. Xo‘sh, shularga o‘zbekcha nom qo‘yib, o‘zbek tilida yozsa, mahsulotlari o‘tmay qoladimi? Eng chet qishloqqa boring, birorta rus millatiga mansub inson yashamaydigan joyda ham “дом продаётся” deb yozib qo‘yilganiga guvoh bo‘lasiz. Shu gaplarni yozayapman-u, endi bu so‘zlarni o‘zbekchaga o‘giraman, deb qovun tushirishmasa bo‘ldi, deb o‘ylayapman. Masalan, “Мы открылись” degan gapni o‘zbekchaga o‘giringlar, desak, “Biz ochildik” deb yozib qo‘yishibdi. Axir, tarjima so‘zma-so‘z amalga oshirilmasligini, ma’nosidan kelib chiqib, bu gap o‘zbekchaga “biz ish boshladik” deb o‘girilishini bilmas ekansiz, oliftalik qilib ruscha yozishga balo bormi, deging keladi. Bu xuddi “seni yaxshi ko‘raman” degan iborani “я тебя хорошо вижу” deb tarjima qilganday gap.

Yoki hozir hamma xususiy telekanallarda aylanib yotgan reklamalardan biriga e’tibor bering. Cholg‘u chalib o‘tirgan yigitning qoshiga o‘rtog‘i kelib, “Yana shuni o‘ynayapsanmi?” deyapti. To‘g‘ri, rus tilida “chalmoq” so‘zi “играть” deb ifodalanadi. Ayni damda “играть” – “o‘ynamoq” (futbol o‘ynamoq – играть в футбол) ma’nosini ham bildiradi. Reklamada esa cholg‘u chalayotgan yigitga “yana shuni chalyapsanmi” deyish o‘rniga... To‘g‘ri, cholg‘uni o‘ynash ham mumkin, faqat yosh bolaning qo‘liga tushib qolsa. Ammo bu yerda tarjimaga, meni ma’zur tutsinlar, mutlaqo savodsizlarcha yondashilgan.

E-he, bunaqa misollarni aytaversang, ko‘p. Umuman olganda, biz qayerda o‘zbekcha, qayerda xorijiy tilda yozish yoki gapirish lozimligini yaxshi bilib olishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi Farmoniga asosan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Menimcha, Departament amalga oshiradigan vazifalar talaygina. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 42-moddasida til, shuningdek, fuqarolarning tarbiya va ta’lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to‘sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha jarima solishga sabab bo‘ladi, deyilgan. Mana shu “mensimaslik” deganda qanday holatlar nazarda tutilishini aniqlashtirish kerak.

Aslida, ona tiliga nisbatan e’tiborsizlik, hurmatsizlik – milliy g‘urur yetishmasligining belgisi. Milliy g‘ururi yo‘q millatning kelajagi ham bo‘lmaydi. Milliy g‘ururi yo‘q millatda milliy birlik bo‘lmaydi. Bizni bugungi yorug‘ kunlargacha yetaklab kelgan, o‘tmishimizni, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimiz, ajdodlarimiz meroslarini asrlar silsilasidan olib o‘tgan, onamiz ovozida qulog‘imizga allalar quygan ona tilimizni, onajon tilimizni qadrlash har birimizning zimmamizdagi sharafli vazifadir.

**Shahlo AHRAROVA,**
**Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti**
**bosh ilmiy xodimi**

IFTIXOR

# MILLAT SHARAFI HIMOYACHISI

**Jahon estetik tafakkurining buyuk namoyandasi hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodining asosiy konsepsiyasi, birinchidan, dunyoning eng boy tillaridan hisoblangan turkiy tilning qadri nechog‘liq yuksak ekanini nazariy va amaliy jihatdan isbotlash, ikkinchidan, turkiy millatning sha’ni va sharafini munosib darajada himoya qilish bo‘lgani ayon.**

Aslida, VII-VIII asrlarda ajdodlarimiz tomonidan turkiy-run yozuvida O‘rxun-Enasoy toshbitiklarining, XI asrda “Devonu lug‘atit-turk” singari til qomusi va “Qutadg‘u bilig” dostonining, XII asrda esa “Hibat ul-haqoyiq”dek nodir badiiyat durdonasining yaratilishi natijasida turkiy tilning lug‘at boyligi va ifoda imkoniyatlari nechog‘liq keng ekani namoyon etilgan edi. Biroq keyingi asrlarda tilimizning adabiy til sifatidagi nufuzi nisbatan pasaya bordi. Turkiy millatning buyuk mutafakkirlari ham mashhur asarlarini arabiy yoki forsiy tilda yozdi. Natijada hazrat Navoiy badiiy ijod maydoniga kirgan XV asr ikkinchi yarmida turkiy til nafis adabiyot tili bo‘la olmasligi, bu tilda “Xamsa” singari ulug‘ asarlarni yozish imkoni yo‘qligi haqida baralla so‘zlana boshladi.

Tabiiyki, bunday vaziyatga chinakam millatparvar ijodkor befarq qaray olmaydi. Alisher Navoiy bunday nomaqbul holatga dastlab Sayyid Hasan Ardasherga masnaviy yo‘lida yozgan she’riy maktubida qat’iy munosabat bildirdi. Ushbu maktubning alohida diqqat qaratish zarur bo‘lgan muhim jihatlaridan biri, ushbu masnaviy navqiron Alisher 24 yoshga kirgan kezlari yozilgan. Jumladan, masnaviyda buyuk shoir yozadi:

***Men ul menki, to turk bedodidur,***
***Bu til birla to nazm bunyodidur.***
***Falak ko‘rmadi men kibi nodire,***
***Nizomiy kibi nazm aro qodire.***

“Bedod” so‘zi lug‘atda “jabr, zulm, adolatsizlik” ma’nolarini anglatadi. Demak, yuqoridagi baytda Navoiy o‘zi haqda yozib, turkiy millatning jabr ko‘rgan, zulmga uchragan, adolatsizlik iztiroblarini tortgan bir farzandi ekaniga urg‘u bermoqda. “Men ul menki” degan ta’kid zamirida jabr ko‘rish darajasi boshqalardan ko‘ra unda yuz chandon og‘irroq bo‘lganini anglatadi. Buyuk shoir turkiy tilda qachondan beri nazm ijod qilinayotgan bo‘lsa, falak Nizomiy darajasida nazmga qodir bo‘lgan mendek nodir siymoni ko‘rmagan, deya faxriya bitgan. Holbuki, ushbu she’riy maktub yozilgan davrda “Xamsa” hali yaratilmagan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga tartib berilmagan, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” va hokazo mashhur asarlar dunyo yuzini ko‘rmagan, endigina “Ilk devon” ko‘chirilib, muxlislar qo‘liga yetib borgan edi. Yuqoridagi faxriya shundan darak beradiki, o‘sha kezlariyoq hazrat Navoiy o‘z qalamining kuchini, turkiy so‘zning qudratini chuqur his qilgan va keng miqyosda e’tirof qozongan.

O‘sha kezlari Navoiyni qiynagan eng og‘ir dard tilining kamsitilayotgani, millat estetik tafakkuri asosi bo‘lgan milliy adabiyotning buyuk mutafakkir ideali darajasida yuksaklikka ko‘tarila olmayotgani edi. Buning uchun muayyan sharoit yetilmog‘i, nazm beshasining sheri maydonga kelmog‘i taqozo etilardi.

***Yetar Tengridin oncha quvvat manga***
***Ki, bo‘lmas bitiriga fursat manga.***

Buyuk shoir o‘ziga ana shunday quvvat ato etilganini teran his etgan. Bu quvvatni Tangridan yetgan, deb hisoblashi uning e’tiqodi tuz, komil musulmon bo‘lganidan dalolat beradi. Bu quvvatning miqyosi shu darajadagi, ilohiy zavq bilan quyilib kelgan so‘z javohirlarini bitib ulgura olmaydi, hatto bunga fursat ham topish mahol.

Hazrat Navoiy she’riy maktub uchun aruzning mutaqorib bahrini – mutaqoribi musammani mahzuf vaznini tanlagan. Ma’lumki, Sharq she’riyatining nodir namunalari hisoblangan Abulqosim Firdavsiyning mashhur “Shohnoma”si, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i, jangnoma ruhidagi asarlar ana shu vaznda bitilgan. Buyuk mutafakkir ota va pir maqomida ko‘rgan Sayyid Hasan Ardasherga atalgan nazmiy maktubni aruzning boshqa sokin, lirik talqinga mos bahrida emas, jangnoma ruhidagi asarlarga monand mutaqoribda yozdi.

Ulug‘ millatparvar keyinchalik “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bitilgan mana bu fikrlarida buni ta’sirli ifodalagan: “Bu ehtimolga xud yo‘l bersa bo‘lmaskim, turk ulusining xushtab’lari majmui sort tili bila nazm aytqaylar va bilkull turk tili bila aytmag‘aylar, balki ko‘pi ayta olmag‘aylar va aytsalar ham sort turk tili bila nazm aytqandek fasih turklar qoshida o‘quv va o‘tkara olmag‘aylar va o‘qusalar, har lafzlarig‘a yuz ayb topilg‘ay va har tarkiblarig‘a yuz e’tiroz vorid bo‘lg‘ay”.

“Turk ulusining xushtab’lari” aksar o‘z ona tillarida emas, forsiy tilda asarlar yozar, turkiy tilda fasohat va balog‘at bilan so‘z aytishni mumkin bo‘lmagan hol sifatida qarar edi. Navoiyni ana shu hol chuqur iztirobga solgan. Shuning uchun ham u nazmiy maktubda forsiy she’riyatning buyuk namoyandasi, “Shohnoma” asari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan Abulqosim Firdavsiy nomini tilga olib, ijod musobaqasida uni mag‘lub eta olishini zamondoshlari ongi va qalbiga chaqmoqdek ta’sir qiladigan so‘zlar bilan talqin etadi. Bu o‘rinda Navoiy ijodiy munozaraning, bahs madaniyatining yuksak namunasini ko‘rsatadi. Firdavsiyning ham hurmatini joyiga qo‘yib, uni so‘z xazinasining koni, deya ta’riflaydi. U o‘z tili bilan “Shohnoma”ni yozish uchun o‘ttiz yil ranj chekkanini, mashaqqat tortganini aytgan, deya buning dalili sifatida buyuk shoir so‘zlaridan iqtibos keltiradi.

***Ani derga bo‘lsa qachon rag‘batim,***
***Erur oncha Haq lutfidin quvvatim***
***Ki, har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,***
***Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘tuz oy.***
***Agar xossa ma’no gar iyhom erur,***
***Aning kunda yuz bayti halvom erur.***



Bunday fikrni aytish va yuksak saviyada uddalash uchun ijodkor nechog‘liq benazir iste’dodga, ulkan ijodiy tafakkurga ega bo‘lishi kerakligini tasavvur eting. Navoiy bu boradagi faoliyatini izchil takomillashtirib bordi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida buyuk mutafakkir turk shoirlarining forsiy tilda ijod qilishga rag‘bat ko‘rsatishlarining sababini, birinchidan, ular turkiy tilning fasohati va balog‘atidan xabardor emasliklari, ikkinchidan, nazmiy an’analar bir qadar rivojlangani bois, forsiyda ijod qilish nisbatan osonroq ekani bilan izohlaydi. Odamzodning tabiati shunday: oson turganda o‘zini qiynashni istamaydi. Hazrat Navoiy turkiy tilning forsiyda uchramaydigan xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatadi. Buyuk mutafakkir bunday xususiyatlardan to‘rttasini ilmiy jihatdan asoslagan.

**Turkiyda umumiy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlardan tashqari juz’iy tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning ko‘pligi.** Akademik Alibek Rustamov fikricha: “Navoiy forsiyda muodili bo‘lmagan yuzta fe’lning ro‘yxatini beradi va turli sohalarga oid buyum, tabiiy hodisa, hayvon va parranda ismlarini keltiradi va ularning ba’zilariga she’riy misol keltirib, ma’nolarini tushuntirib beradi. Undan tashqari, bunday turkiy so‘zlarning ayrimlari fors tilida ham qo‘llanishini aytib o‘tadi”. Navoiy, jumladan, mashhur shoirlar may ta’rifida mubolag‘a qilganlarini ta’kidlar ekan, turkiydagi “sipqarmoq” lafziga to‘xtalib, mubolag‘ani bundan o‘tkazib bo‘lmasligini aytadi va mana bu baytni misol sifatida keltiradi:

***Soqiyo, tut bodakim,***
***bir lahza o‘zumdin boray,***
***Shart bukim, har necha tutsang***
***labo-lab sipqaray.***

Ushbu bayt hazrat Navoiyga shu darajada zavq beradiki, asosan ilmiy uslubga qat’iy amal qilingan asarning shu o‘rnida hayajonini yashirib o‘tirmaydi: **“Oyo! Bu “sipqaray” lafzi mazmunig‘a yetganda, forsiy she’rda ne iloj qilg‘aylar? Va “tomshimoq”ki, g‘oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g‘arib ma’ni adosida turkchada bu matla’ bordurki, bayt:**

***Soqiy chu ichib, manga tutar qo‘sh:***
***Tomshiy-tomshiy ani qilay no‘sh”.***

**Turkiyda shakldosh so‘zlarning ko‘pligi tajnis va iyhom san’atlari uchun zarurdir.** Navoiy “ot” so‘zi asosidagi tuyuqni bunga misol qilib keltiradi:

***“Chun pari-yu hurdur oting, begim,***
***Sur’at ichra dev erur oting, begim,***
***Har xadangikim, ulus andin qochar,***
***Notavon jonim sari oting, begim.***

**Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xossasidurki, sortda yo‘qtur va muni tuyug‘ derlar”.**

Asarda forsiyda uchramaydigan shakldosh so‘zlarga bundan boshqa yana ko‘p misollar berilgan.

**Turkiyda forsiy tilda bo‘lmagan, lekin nutq uchun zarur bo‘lgan siyg‘a** (grammatik forma, fe’l shakllari **– N.J.) va tarkiblarning mavjudligi.** Navoiy turkiy tilda inson harakati, holati bilan bog‘liq nozik ma’nolarni ifodalashda ayni shunday siyg‘alar qo‘llanishiga aniq misollar keltiradi. Masalan, bir ishni kimdir bajarishiga gumon qilinganda, unga nisbat berish uchun borg‘udek, yorg‘udek, kulgudek, bilgudek, aytqudek, qaytgudek, urg‘udek, surg‘udek kabi so‘zlar ishlatilishi aytiladi. Bu so‘zlar Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida hozir ham faol qo‘llanadi. Buyuk mutafakkir “ammo munda diqqat ko‘ptur... va bu forsiyda bo‘lmas”, deya ta’kidlaydi. Yoki forsiy tilda uchramaydigan bila ko‘r, qilako‘r, ketako‘r va yetako‘r singari siyg‘alardan mubolag‘a iroda qilinishini aytadi.

**Turkiyning tovush xususiyati qofiya uchun fors tilinikiga nisbatan qulayroq ekani.** Navoiy biror rang yo sifatni orttirib, mubolag‘a bilan ifodalash imkoniyati turkiy tilda keng ekaniga alohida urg‘u beradi. Bunga misol qilib, avvalgi harfga bir “p” yoki “mim” qo‘shish orqali rang yoki sifatni orttirish mumkinligiga urg‘u beradi. Masalan, op-poq, qop-qora, qip-qizil, sap-sarig‘, yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochug‘, chup-chuqur, bu nav’ xili ham topilur; “mim” misoli: ko‘m-ko‘k, yam-yashil, bo‘m-bo‘sh. Yoki ayrim so‘zlarga “lom” bilan “vov”ni qo‘shish orqali ham tovush jihatdan bir-biriga uyg‘un so‘zlar yasalishi ta’kidlanadi. Jumladan, hirovul, qarovul, chingdovul, yankovul, so‘zovul, patovul, kitpovul, yasovul, bakovul, shig‘ovul va daqavul so‘zlarini bunga dalil qiladi. Bular barchasi nazmiy asarda qofiya uchun qulay va turkiy tilning fasohati baland ekanini tasdiqlaydi.

Hech bir zamonda ahamiyatini yo‘qotmaydigan ushbu qarashlar buyuk mutafakkirning turkiy tilni kompleks o‘rganish va forsiy til bilan komparativistik tahlil etishda nainki ilmiy-ijodiy tafakkur asosida, balki qalb qo‘ri bilan ham yondashganidan dalolat beradi. Navoiyning ta’kidlashicha, bunday daqiq misollar nihoyatda ko‘p, faqat “bu kunga degincha hech kishi haqiqatig‘a mulohaza qilmag‘on jihatdin bu yashurun qolibdur”.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da hazrat Navoiy turkiy tilning dunyo tillari orasidagi o‘rni nechog‘liq baland ekani haqida mana bunday yozadi: “...uch nav’ tildurkim, asl va mo‘tabardur va ul tillar iborot gavhari bilan qoyilining adosig‘a zevar va har qaysining furu’i bag‘oyat ko‘ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning mash’aidurki, Nuh payg‘ambar salovatullohi alayhining uch o‘g‘lig‘akim, Yofas va Som va Homdur, yetishur”.

Ma’lum bo‘ladiki, bizning tilimiz boshqa tillarning kelib chiqishiga asos, zamin bo‘lgan tillardan va biz dunyoning eng qadim millatlaridan ekanmiz. Bu ilmiy qarash ona tilimiz tarixini ana shu asosda ilmiy manbalarga tayangan holda, yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Hazrat Navoiy turkiy millatning yagona adabiy tili bo‘lishi, bu tildagi adabiyot yuksak darajada taraqqiy etishi uchun xizmat qilishni hayotiy a’moli deb bildi. Butun ijodiy quvvatini ana shu maqsad yo‘liga safarbar etdi. Eng muhimi, bunga erisha oldi. Zamondoshi va do‘sti, temuriyzoda hukmdor Sulton Husayn Mirzo ta’biri bilan aytganda: “Turkiy tilning o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyurdi”.

Bugungi kunda turkiy xalqlarning o‘rta bir tilini yaratish zarurati haqida so‘zlanyapti. Bizningcha, agar shunday tilga ehtiyoj sezilsa, bu, shubhasiz, Alisher Navoiy tili bo‘lishi kerak. Chunki buyuk Navoiy o‘sha murakkab va ziddiyatli zamonda turkiy tilning xalqaro miqyosdagi e’tirofini ta’min etdi. Teran falsafiy-irfoniy mazmun va betakror badiiy shakl sintezining mumtoz namunalari bo‘lgan asarlari bilan turkiy adabiyotni jahon estetik tafakkurining cho‘qqisiga olib chiqdi. Bu asarlar bugungi kunda ham barhayot turkiy ruhiyat ifodasi orqali bashariyatni xalqimizga xos kengfe’llikka, o‘zaro dushmanlikni bartaraf etishga, tinchlik-ofiyat va taraqqiyot yo‘lida birlashishga, kamol kasb etishga da’vat etib kelayotir.

**Nurboy JABBOROV,**
**filologiya fanlari doktori,**
**professor**



**Hech ikkilanmay aytish mumkinki, u (hazrat Alisher Navoiy) turkiy tilni adabiy til darajasiga ko‘tara oldi.**

**Yevgeniy BERTELS**

JAHON AYVONIDA

### “CHATGPT”DA HIMOYA FUNKSIYASI

**“OpenAI” kompaniyasi “ChatGPT” tizimida ayrim suhbatlarni to‘rt xonali PIN-kod bilan himoyalash funksiyasini ishga tushirdi.**




Yangi tartibga ko‘ra, himoyalangan suhbatlar umumiy qidiruv natijalari, qadalgan chatlar ro‘yxati va odatiy tarixda ko‘rinmaydi – ularni faqatgina “Projects” bo‘limidagi “Locked chats” sahifasidan topish mumkin.



### CHEXIYADA OLTIN KONI

**Chexiyaning Zlate-Gori shahrida 11 tonna oltin zaxirasiga ega kon topildi – kelgusi o‘n yil ichida mazkur hududdan 6,2 tonna qimmatbaho metall qazib olinishi kutilmoqda.**

Oltindan tashqari, majmuada yiliga 200 ming tonna rudani qayta ishlash hisobiga 265 tonna mis hamda 1556 tonna rux ajratib olish rejalashtirilgan.

### VIZALAR BEKOR QILINMOQDA

**AQSH prezidenti Donald Tramp ma’muriyati 2025-yilning yanvarida boshlangan ikkinchi muddati davomida 300 mingdan ortiq vizani bekor qildi.**

So‘nggi haftalarda mazkur jarayon sezilarli darajada tezlashgan – natijada




bekor qilingan ruxsatnomalarning umumiy soni ko‘rsatilgan raqamdan oshib ketgan.

### MILLIONTA MINA XARIDI


**Finlyandiya qurolli kuchlari xavfsizlik vaziyatining yomonlashuvi ortidan 100**



**million yevro evaziga bir million dona piyodalarga qarshi mina xarid qilishni rejalashtirmoqda.**

Mazkur arsenalni to‘ldirish jarayoni 2028-yilgacha yakunlanishi ko‘zda tutilgan – ushbu qarordan avvalroq mamlakat bosh vaziri Petteri Orpo Rossiyani Finlyandiya va Yevropa xavfsizligiga nisbatan uzoq muddatli tahdid deb baholagan edi.

### ADABIYOTDA SUN’IY INTELLEKT



**Fransiyada faqatgina sun’iy intellekt bilan hamkorlikda yozilgan badiiy asarlar uchun mo‘ljallangan “Prix Pascal de Littérature IA” nomli yangi adabiy mukofot ta’sis etildi.**

Musobaqa shartiga ko‘ra, mualliflar qaysi modeldan va qanday so‘rovlardan foydalanganini ochiqlashi talab qilinadi – g‘olib deb topilgan qo‘lyozma esa nashriyot tomonidan chop etiladi.

### MUZOKARALAR QAYTA TIKLANADI



**“Reuters” xabariga ko‘ra, Rossiya va Ukraina yetakchilari noyabr oyida AQSH vositachiligida tinchlik muzokaralarini davom ettirishga kelishib oldi.**

Abu-Dabida bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan mazkur jarayon doirasida delegatsiyalar bevosita prezidentlar – Vladimir Putin va Vladimir Zelenskiy uchrashuviga tayyorgarlik ko‘radi.

TAASSUROT

# HUJJATLAR SO‘ZLAGANDA

**Tarix haqida ko‘p va xo‘b yozish mumkin, uni turlicha talqin qilish ham mumkin. Ammo tarixiy shaxsni zamoniga qaytaroq jild-jild hujjat, maktublar, tergov bayonnomalari, matbuot nashrlari va zamondoshlari xotiralarida qayta jonlantirish o‘ziga yarasha mas’uliyat talab etadi. O‘zbek tarixshunosligining taniqli namoyandalaridan biri, professor Rustambek Shamsutdinovning yangi – “Buyuk Cho‘lpon merosidan” kitobini o‘qir ekanman, ana shunday mas’uliyatli yondashuvga yana bir bor guvoh bo‘ldim.**



Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi o‘zbek adabiyotshunosligi, tarixshunosligi va matnshunosligida ko‘p bor tadqiq etilgan. Shunga qaramay, uning murakkab taqdiri, yashagan davri va faoliyatiga doir hali to‘la ochilmagan sahifalar oz emas. Rustambek Shamsutdinov asarining ilmiy qiymati ham ana shu sahifalarga arxiv hujjatlari orqali murojaat etishida namoyon bo‘ladi. Muallif tayyor xulosalarni takrorlashdan ko‘ra, davrning o‘zidan qolgan dalillarni o‘rtaga tashlaydi. Natijada Cho‘lpon haqidagi tasavvurlarimiz yangi hujjatli ma’lumotlar bilan boyiydi.

Bu borada olimning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari, O‘zbekiston bilan bir qatorda, ko‘plab xorijiy arxiv va fondlarda to‘plagan muhim tajribasi qo‘l keladi. Jumladan, Moskvadagi Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarix davlat arxivi fondlaridan topilgan OGPU hujjatlari 1920-yillar oxiridayoq Cho‘lponning siyosiy qarashlari sovet maxsus xizmatlari diqqat markaziga tushganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, kitobda Cho‘lpon haqidagi baholar keyingi davrlarda ilgari surilgan taxminlardan ko‘ra, ko‘proq o‘sha zamonning bevosita hujjatlariga asoslanishi bilan ahamiyatlidir.

Ayniqsa, qatag‘on yillariga oid hujjatlar kishini larzaga soladi. Kitobda Moskvadagi “Memorial” jamiyati arxivida olib borilgan izlanishlar, Rossiya xavfsizlik xizmati arxividan olingan materiallar haqida batafsil so‘z yuritiladi. 1938-yili Toshkentda hukm qilingan qatag‘on qurbonlari ro‘yxatida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning nomi, hukm va qatl sanalarining qayd etilgani, ayniqsa, og‘ir taassurot qoldiradi. Zero, bu hujjatda biz asarlaridan yaxshi tanigan Cho‘lponni emas, o‘z hayoti va taqdiri ustidan hukm chiqarish huquqidan mahrum etilgan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘lini ko‘ramiz. Adabiyot tarixida buyuk shoir sifatida yashab qolgan insonning qatag‘on hujjatlarida mahkum sifatida qayd etilishi o‘sha davr fojiasini chuqurroq anglatadi.

Kitobda ilgari keng jamoatchilikka noma’lum yoki kam ma’lum bo‘lgan tergov hujjatlarining e’lon qilinishi Cho‘lpon fojiasining yana bir og‘ir qirrasini ochadi. Hibsga olish farmoyishlari, so‘roq bayonnomalari, tintuvda musodara qilingan buyumlar ro‘yxati, shoirning qo‘lyozmalari va kundaligiga oid qaydlar orqali qatag‘onning qanday amalga oshirilganini hujjatma-hujjat kuzatamiz. Ayniqsa, tintuv paytida olib qo‘yilgan yangi roman va she’r qo‘lyozmalari, daftarlar, kitoblar hamda boshqa buyumlarning keyinchalik yo‘q qilingani haqidagi ma’lumotlar o‘yga toldiradi. Bu bilan Cho‘lponning hayotigagina emas, uning hali o‘quvchi qo‘liga yetib bormagan asarlariga ham nuqta qo‘yilganki, qatag‘on oqibatida millat o‘z shoiridan ayrilgani yetmagandek, uning qaytib tiklab bo‘lmaydigan ijodiy merosidan ham mahrum bo‘lgan.

Asarda arxiv hujjatlarining zamondoshlar xotiralari, davriy matbuot materiallari va xorijiy fondlardagi manbalar bilan qiyosiy o‘rganilishi diqqatga sazovor. Bu yondashuv Cho‘lponning shoir, jurnalist, tarjimon va istiqlol g‘oyasining vakili sifatidagi ko‘p qirrali faoliyatiga doir ma’lum qarashlarni takrorlashdan ko‘ra, uning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy tasavvurlarimizni hujjatli dalillar asosida to‘ldirishga xizmat qiladi.




Menimcha, tarixshunoslikda aynan shunday yondashuv o‘ta muhim: oldiniga hujjat gapirsin, so‘ng tadqiqotchi xulosa chiqarsin. Zero, jadidlarimiz tarixi uzoq yillar mafkuraviy ayblovlar, sukut va buzib talqin qilishlar soyasida qoldi. O‘sha davr haqiqatlarini tiklash uchun dunyoning turli arxivlarida sochilib yotgan hujjatlarni izlab topish, ularni o‘zaro solishtirish, har bir ma’lumotni tarixiy voqelik bilan qiyoslab, ilmiy muomalaga kiritish talab etiladi.

“Buyuk Cho‘lpon merosidan” asarining eng katta yutug‘i – Cho‘lpon haqidagi tarixiy xotirani yangi hujjatlar bilan mustahkamlaganidadir. Zero, qatag‘on yillarida shoirning nomi bilan birga haqiqiy hayotini ham tarixdan o‘chirishga uringan edilar. Bugun o‘sha tuzumdan qolgan hujjatlarning o‘zi Cho‘lpon taqdiriga guvohlik bermoqda. Asarning ilmiy va ma’naviy salmog‘ini, fikrimcha, avvalo, shu tarixiy haqiqat belgilaydi.

Shu o‘rinda professor Rustambek Shamsutdinovning men uchun alohida qadrli yana bir ilmiy xizmatiga to‘xtalsam. U mening otam Usmon Xo‘jaga sovet davrida qo‘yilgan siyosiy ayblovlarning asossizligini matbuotda birinchilardan bo‘lib ochiq aytgan tarixchi. Uning 1991-yil 15-oktyabrda “Xalq so‘zi” gazetasida chop etilgan “Usmon Xo‘ja vatan xoini emasdi” maqolasi yillar davomida tarixiy haqiqat o‘rnini egallab kelgan mafkuraviy tamg‘alarga qarshi dadil chiqish edi. Olim bu maqolasida tarixchilarning o‘zi ham ana shu nohaq ayblovlarni qaror toptirishda ishtirok etganini ro‘y-rost yozgan: “Biz tarixchilar Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jani shu vaqtgacha vatan xoini, ingliz josusi sifatida qoralab keldik. Tarixiy asarlarimizda masalani har tomonlama va chuqur o‘rganmasdan, shoshma-shosharlik bilan oson xulosaga kelish maqsadida Usmon Xo‘ja va unga o‘xshagan inqilobimizning kurashchilari hamda ilg‘or namoyandalariga “vatan xoini”, “inqilob dushmani”, “burjua millatchisi”, “turkchi”, “islomchi” kabi tamg‘alarni yopishtirishda davom etdik. Shu tariqa o‘z asarlarimiz, tadqiqotlarimiz va doktorlik dissertatsiyalarimizning sinfiylik, partiyaviylik hamda internatsionalizm ruhida yozilganini isbotlashga urindik”.

Hurmatli tarixchimiz Rustambek Shamsutdinovning ushbu fikrlarini keyinchalik Niderlandiyada nashr etilgan o‘z kitobimda (“Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900–1924”, 2001) ham keltirgan edim. Otam Usmon Xo‘ja haqidagi o‘sha maqolaga bejiz to‘xtalmadim. U tarixiy haqiqatni himoya qilishda olimning qat’iy pozitsiyasi, vijdoni va jasorati qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan edi. Professor Rustambek Shamsutdinovning “Buyuk Cho‘lpon merosidan” asarini zo‘r ishtiyoq bilan mutolaa qilar ekanman, uning o‘sha paytdayoq tanlagan ilmiy yo‘lidan bir zum og‘ishmaganiga amin bo‘ldim.

Olimni yangi kitobi bilan chin qalbimdan tabriklayman. Ishonchim komilki, bu asar cho‘lponshunoslikda yangi tadqiqotlarga yo‘l ochadi, jadidlarimiz tarixining hali to‘la o‘rganilmagan sahifalarini yoritishda tadqiqotchilar uchun mustahkam manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Temur XO‘JAO‘G‘LI,**
**jadidshunos**
*Istanbul*

MILLAT FIDOYILARI

# IKKI SA’DULLANING BIR TAQDIRI

**Turkistonda mustamlaka siyosati davrida bot-bot qatag‘on o‘tkazib turilgani ma’lum. Har gal birinchi to‘lqinga huquq-tartibot idoralarining aqliy salohiyati yuqori va tajribasi katta vakillari uchragan. “Axir, sudyalar, prokurorlar, advokatlar amaldagi tuzumga xizmat qilsa, ularni yo‘qotish nimaga kerak?” deb o‘ylashingiz mumkin. Ammo adliya vakillari orasida vatanparvar, millatparvar kadrlar ko‘p bo‘lgan. Ular qizil imperiyaga ham, uning tuslanib turuvchi qonunlariga ham emas, vijdon amriga ko‘ra o‘z xalqiga xizmat qilgan. Bu fidoyilik esa “mukofot”siz qolmagan, albatta. Xususan, O‘zbekiston prokuraturasi tarixidagi ikki yirik arbob o‘tgan asrning o‘ttizinchi va saksoninchi yillaridagi repressiya oldidan og‘ir zarbaga uchraydi. Tasodifni qarangki, ikkalasining ham ismi Sa’dulla edi...**

* * *

Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax viloyat musiqali drama teatrining “Millat sha’ni” spektakli O‘zbek milliy akademik drama teatri sahnasida premyera qilindi. Sahna asari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Madaniyat vazirligi hamkorligida tayyorlangan. Unda Respublika prokuratura organlari faxriysi, 3-darajali Davlat adliya maslahatchisi, marhum Sa’dulla Po‘latxo‘jayevning hayot yo‘li aks ettirilgan. Spektakl XX asrning 70-yillaridagi qatag‘on davrida bevosita huquqshunoslar boshiga kelgan qora kunlar haqida so‘zlaydi.


Prokuratura tizimidagi faoliyatini eng quyi lavozimdan boshlab, 32 yoshida general va 35 yoshida Oliy sudga rais bo‘lgan Sa’dulla Po‘latxo‘jayev halolligi, jasurligi, irodasi va millatparvarligi bilan ajralib turardi. U hech qachon zamonasozlikka qo‘l urmaydi, “ko‘tarilish” uchun “markaz”ning nopok o‘yinlariga aralashmaydi. U har qancha aqlli, farosatli, o‘z ishining ustasi bo‘lmasin, uning jangovar ruhi va bukilmas irodasi o‘sha davrdagi partiya arboblariga xush kelmaydi. U yirik davlat arbobi Yodgora Nasriddinovaning ustidan pora bo‘yicha shikoyat yozishdan bosh tortadi. O‘sha vaqtda “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan jirkanch tuhmatga asoslangan yangi qatag‘onga zimdan zamin hozirlanayotgan edi. Bu qing‘irlikni esa adolatparvar qonun himoyachisi bilan amalga oshirish imkonsizligi ayonlasha bordi va Sa’dulla Po‘latxo‘jayevga qarshi yurish boshlandi...




* * *

Bunday ssenariy sovetlar uchun yangilik emasdi. 1920-yillarda, 25 yoshida Oliy sudning birinchi raisi etib tayinlangan Sa’dulla Qosimov boshiga ham dahshatli kunlar tushgandi. Sa’dulla Qosimov huquq sohasining ko‘zga ko‘ringan vakili, jadidlar bilan maslakdosh inson bo‘lib, qonli qatag‘on ilk nishonga aynan uni olishi bejiz emas edi. Bu Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi millat ziyolilarini mahv etish uchun ilk qadam bo‘lgan. Sa’dulla Qosimov bilan birgalikda Oliy sudda prokuror lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Badriddin Sharipovni ham qatag‘on o‘z domiga tortdi. Lekin ular boshlagan g‘oyalar o‘lmadi.

O‘zbekiston tarixidagi birinchi oliy ma’lumotli prokuror, Markaziy Osiyoda yuridik ta’limning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Muhammadjon Mo‘minov ham o‘zining ilk faoliyatini Oliy sudda prokuror sifatida Sa’dulla Qosimov raislik qilgan vaqtda boshlagan. Huquqshunos akademik Hadicha Sulaymonova o‘z esdaliklarida ustozi, ilmiy rahbari Muhammadjon Mo‘minovning “Jinoyat huquqi” fanidan o‘tgan darslarini xotirlaydi. Taqdir charxpalagining aylanishini qarangki, vaqt o‘tib Hadicha Sulaymonovaning o‘zi ham iqtidorli shogirdi Sa’dulla Po‘latxo‘jayevga shu fandan saboq berib, ilmiy rahbarlik qildi. Keyinchalik Sa’dulla Po‘latxo‘jayev O‘zbekiston SSR prokurori o‘rinbosari, Oliy sudi raisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Sa’dulla Qosimov o‘limga tik boqqan bo‘lsa, Sa’dulla Po‘latxo‘jayev bir ayol sha’niga tuhmat qilmaslik uchun o‘n yil muddat qamoq jazosini o‘tadi.



*Sa’dulla Qosimov (1900–1930)*

* * *

Respublika Oliy sudi raisi bo‘lib ishlagan kishini poraxo‘rlikda ayblash O‘zbekistondagi butun sud tizimini qoralab, yer bilan yakson qilishga teng edi. Tuzilgan maxsus tergov guruhi ishni bir yoqlama, faqat qoralov yo‘li bilan olib borgan. Tergovda qiynoqlar va boshqa usullar natijasida 16 nafar shaxsdan Sa’dulla Po‘latxo‘jayevga qarshi ko‘rsatma olingan. Biroq ular sudda Po‘latxo‘jayev foydasiga guvohlik beradi, tergov jarayonlari adolatsiz o‘tkazilganini aytishadi. Hatto, biri sudda tiz cho‘kkan holda “ayblanuvchi”dan uzr so‘raydi. Sudda yetarli asos to‘planmagani uchun qayta tergov boshlanadi va qiynoqlar davom ettiriladi. Shundan so‘ng oxirgi to‘rtta epizod vakillari ko‘rsatmasi asosida Sa’dulla Po‘latxo‘jayev 10 yil ozodlikdan mahrum qilinib, qamoq jazosini o‘tash uchun Rossiyaning Mariy El avtonom respublikasining Morki shahriga yuboriladi. S.Po‘latxo‘jayev 1994-yildagina oqlanishga muvaffaq bo‘ladi. Unga qarshi ko‘rsatma berishdan bosh tortgan o‘nlab sudyalar 10 yil va 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinadi.

* * *

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 31-avgust kuni “Shahidlar xotirasi” xiyobonida berilgan topshiriqlar hamda Respublika Bosh prokurorining “Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura organlari xodimlarining xotirasini tiklash va abadiylashtirish”ga oid farmoyishi ijrosi bo‘yicha 300 nafar olim, prokuror va o‘z sohasining yetuk mutaxassislari ishtirokida ishchi guruh tashkil etildi. 2024-yil 8-yanvar Prokuratura xodimlari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda Sa’dulla Po‘latxo‘jayevga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi faxriy xodimi” ko‘krak nishoni berildi va bu insonning uzoq kutgan orzulari amalga oshdi. Sa’dulla Po‘latxo‘jayev 2024-yil 4-aprel kuni olamdan ko‘z yumgan. Shoxruh Akbarovning “Agar dardim bayon etsam...” nomli kitobi fotofaktlar va yangi qism bilan boyitilib, yirik adadda nashr etildi va barcha prokuratura organlari xodimlariga tarqatildi.

* * *

Joriy yil 19-oktyabr kuni Bosh prokuratura tashabbusi bilan O‘zbek milliy akademik drama teatrida mazkur asar asosida yaratilgan dramaturg Islom Hamroning “Millat sha’ni” spektakli premyerasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mehriddin Rahmatovning Sa’dulla Po‘latxo‘jayev rolidagi ijrosi tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Spektaklda inson qadri va sha’nini ulug‘lash, Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, yuksak ma’naviyat va fidoyilik kabi ezgu fazilatlar badiiy ifoda etildi.

Oliy sudning ikki raisi – ikki Sa’dullaning kutgan kunlari bugun keldi. Oliy sud 2024-yil 6-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan keltirilgan protest asosida Respublika Oliy sudining birinchi raisi Sa’dulla Qosimovni to‘liq oqladi. Birining nomi mard, jasur huquqshunos sifatida maktab darsliklaridan o‘rin olgan, ikkinchisining nomi millat or-nomusi, sha’ni, adolati va haqiqati timsoli sifatida san’at asarlariga muhrlandi. Ismlari o‘xshash, Sa’dulla, ya’ni “Yaratganning yaxshi bandalari”, taqdirlari mushtarak, qismatlari dardli, irodasi sobit, kasblari adolat, maslaklari qonun himoyasi bo‘lgan millat fidoyilarining nomi barhayotdir.

**Gulira’no ORIFJONOVA,**
**O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi direktori,**
**tarix fanlari doktori**

QADRDON KITOBLAR




## “YANGRASIN ERKIN SO‘ZING”

**Xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni” ilk bor nashr etilganida, o‘quvchilar tomonidan katta quvonch bilan kutib olingani ma’lum. Bu kichik to‘plamning o‘z davrida nihoyatda mashhur bo‘lib ketgani undagi deyarli barcha g‘azallarning darhol o‘lmas qo‘shiqlarga aylanib, xalqimizning qalbidan joy olganida ham namoyon bo‘ladi.**

**Ta’bir joiz bo‘lsa, san’atkorlar bu kitobni yutoqib kutib olganday taassurot tug‘iladi. “Barcha shodlik senga bo‘lsin”, “Surma”, “Dildorga noma yozdim”, “Senga baxtdan taxt tilarman”, “Lola sayli”, “Yoshligim”, “Xayol”, “Uyg‘otmagil”, “Do‘st bilan obod uying”, “Rashkim”, “Rubobim tori ikkidur”, “Oyning o‘n beshi qorong‘u”, “Gulchehralar”, “Lola”, “O‘zbegim” singari mashhur qo‘shiqlar so‘zimiz isbotidir.**

**Shoir bir g‘azalida “Yangrasin Erkin so‘zing, Aslo tiling lol o‘lmasin”, deb yozadi. “She’r aziz olam aro”, “O‘rtada begona yo‘q” kabi o‘nlab jumlalar qanotli iboralarga aylanib, bezavol yashab kelayotgani ham shoir barhayotligidan nishonadir. “Yoshlik devoni” to‘plami O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Adabiyot” nashriyoti tomonidan xuddi o‘sha – birinchi bor nashr etilgan ko‘rinishda chop etilgani xayrli ish bo‘lgan.**

**Nigina ISKANDAROVA**

YORUG‘ XOTIRALAR

# “YAXSHILAR BOR YAXSHIYAM...”

**Farg‘onaning tanti, zabardast shoiri Bahodir Isoni ilk bor bundan o‘n uch-o‘n to‘rt yillar oldin Yozuvchilar uyushmasining viloyat bo‘limida ko‘rgandim. Ustozimiz Enaxon Siddiqova bo‘lim qoshida tashkil qilgan “Qalb sadosi” gazetasining yangi soniga urinib turganimizda, bir kishi baralla salom berib kirib keldi-yu, go‘yo hamma uni kutayotganday xona ichi zavq-shavqqa to‘lib ketdi.**



Egnida odmigina kulrang kostyum, boshida do‘ppi, qo‘lidagi sumkada kitoblarning burchaklari bo‘rtib turibdi. Hazil-huzul bilan hol so‘rashdi, so‘ng:

– Qani, Manzura opa, – dedi, – bog‘ga o‘taylik-chi, nima harakatlar ekan.

Ular xonadan chiqishlari bilan so‘radim:

– Kim bu kishi?

– Bahodir Iso-da! Tanimasmidingiz?

– Yo‘g‘-e? Taniyman, katta shoirku! Lekin endi ko‘ryapman-da. Juda... oddiy ekanlar.

– Ha, shunday. Hozir atrofga yangi ko‘chatlar ekish uchun tavsiya bergani keldilar. Qurilishgayam uquvlari bor. Rassom, naqqosh, haykaltarosh. Bahodir aka shunaqa, jaydari buyuklardan!

Keyin shuncha yillar o‘tdi va har doim shunday bo‘ldi: u kirib kelgan davralar jonlanib ketar, izdihomda ajib yengil kayfiyat paydo bo‘lar, rasmiyatchilik degan yuk birdan yelkalardan tushardi. Undan doim she’r so‘rardilar, lekin kam hollardagina minbarga chiqardi. Shoirning tabiatini she’ridan yaxshiroq ifoda etish qiyin:

**Ovoza bo‘lish ham**
**lekin sal**
**ishkal,**
**Shon-shuhrat**
**kimlarni buzmagan axir...**
**Mening suyaklarim**
**mehnatda**
**pishgan,**
**Menga**
**yalangoyoq yurmoqlik –**
**faxr!**

Ajabo, mana o‘sha “jaydari buyuklik”! Aynan shunday. Bahodir Isoni davralar suydi, katta dargohlar o‘ziga chorladi, she’rlari yod bo‘ldi, u esa o‘sha-o‘sha, “Bu sodda maskanda soddaman hamon” degancha, jo‘ngina yo‘lida davom etdi. O‘nga yaqin kitoblari chiqdi, she’rlari qo‘shiqqa aylandi, u haqda qator ko‘rsatuvlar namoyish etildi – u hamon o‘shanday, “She’rim, yana o‘zing yaxshisan” (Usmon Nosir) deya yuraverdi.

Uning suhbatida ham, ijodida ham o‘zigagina xos mag‘zi to‘q yumor bor edi. Gurunglarni xalqona qochirimlar bilan qizdirar, tagdor mutoyiba bilan mazmun baxsh etar edi. Hazil she’rlari – alohida mavzu. Kuldirganida ham yurakdan, g‘uborlarni to‘kib kuldirgan shoir bir qarasang... boshdan oyoq anduhga cho‘mgan. Bu purg‘amlik, tiriklik va o‘zlik aro bedorlik uning “Uyg‘onish” she’rida betakror ifodasini topgan:

***Horg‘in ruhim,***
***qanotlaring ho‘l,***
***Bir silkinsang***
***yuking ariydi.***
***...Yerda daho***
***bo‘lguncha, ko‘kka***
***yulduz bo‘lib ko‘chsam,***
***qaniydi...***

Inson ruhining javhari bo‘lmish ruh tarhini bu qadar tiniq tasvirlash uchun iste’dodning o‘zi kamlik qiladi. Bu – hayotga tik boqib yashamoq, tafakkur maydonida muttasil kurashmoq natijasidir.

**Ma’yus she’rlarimni**
**tinglaydi kim deb,**
**Tinglab, yurak-bag‘rin**
**tig‘laydi kim deb,**
**Bahodir Isoni anglaydi**
**kim deb,**
**Odamlar ichidan**
**odam izladim... –**

deydi u yana bir mashhur she’rida, shoirona iztirobni bahodirona ifoda etib. Darhaqiqat, xalqimiz “So‘zing o‘zingdir” degandek, u shoirlarning bahodiri edi! Buni anglash uchun “Qorabayir”, “Siz shoshilmang”, “Umr” kabi she’rlarini o‘qib, bir lahzagina o‘yga tolish kifoya.

Shoir iste’dodining qirralari naqadar yorqin! Suratlari, naqshlari, haykallari... Rishtonning Dutir qishlog‘idagi o‘zi o‘qigan maktabda Abu Ali ibn Sino haykali, Toshkentning Yunusobod dahasida hazrat Navoiy siymosi va yana qanchadan qancha byust, portretlar shoirning mohir qo‘llari mahsuli ekanini hamma ham bilmasa kerak. O‘zbek elining matonatiga qiyoslab qadrdon qishlog‘ida tiklagan “Omonlik daraxti” nomli ramziy yodgorlikni esa yillab qurgan, sayqallagan, hali yana takomiliga yetkazmoqchi edi...

– Bahodir ustoz ancha og‘rib qolibdilar, – dedi viloyat uyushmasi rahbari Dilshodaxon. – Ertaga uylariga o‘tib, ko‘rib kelamiz.

Xastaliklarini eshitgan, so‘rab turgan edik, lekin bunchalik jiddiy deb o‘ylamagandik. Axir, Bahodir aka-ku bu – doim tetik, dadil, peshqadam! Lekin issiq jon ekanda, o‘tar-ketar dard bo‘lsin ishqilib, degancha yo‘lga chiqdik. Qishning namchil pallasi, tin olgan tabiatning o‘ychan manzaralari... Sarishta hovliga kirdik, o‘g‘illari kutib olib ichkariga boshladi. Bahodir aka bizni ko‘rib bir qo‘zg‘aldi-yu, uzr aytib yana yostiqqa bosh qo‘ydi. Hukminiso aya yonlarida, pechkada o‘t lovullaydi. U doimgidek tetik so‘zlashdi, hammani birma-bir so‘radi. O‘ktam ovozidan xiyla taskin topdik.

– Tezroq qayting endi, ustoz, sizsiz huvillab qoldik, – dedi Dilshodaxon.

– Xudo xohlasa, qaytaman, o‘zim ham ishni, odamlarni sog‘indim. Faqat hozir emas, bu ahvoldamas... Tuzalib olay, avvalgiday yerni gursillatib bosib boraman!

Yaratganning irodasi bilan bu ustozdan eshitgan so‘nggi so‘zlarimiz bo‘ldi. Ko‘zlari chaqnoq, chayir, keng qanotlari ho‘l ruh qushi bir silkindi-yu, yuki arib, uchib ketdi...

“O‘zimga savol beraman – men kimman? – degan edi Bahodir Iso intervyularining birida. – Maqsadim – faqat yaxshilik, faqat yaxshilik!..” Haqiqatan, u barchaga fido bo‘lib yashadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, uning o‘zbek adabiyotida borligi – eng katta yaxshiligi edi.

...Mashinamiz to‘la mehmon, shaharning silliq yo‘llaridan yurib boryapmiz. Radiodan qadrdon qo‘shiq yangrayapti.

***Shoirman deb, Bahodir Iso,***
***Dunyolarga solmagin g‘avg‘o.***
***Bermasinlar senga ham baho –***
***Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin.***

– Mana, eshitinglar-a, – deydi ulovni boshqarib borayotgan turmush o‘rtog‘im jo‘shib. – Mana shu qo‘shiq she’rini yozgan odam bor-u, o‘sha katta shoir to‘y qilganimizda biznikiga kelgan!

– Voy, muncha yaxshi, taniydimi sizlarni?

– Ha, oilam bilan birga ishlagan. Bahodir Iso!

Ha, Bahodir aka dunyolarga g‘avg‘o solmasdan, so‘z bilan tanilib ketdi. Yulduz bo‘lib ko‘kka emas, ko‘ngillar toqiga ko‘chdi.

Yodim lavhalarini shoirning “Rauf Parfi” she’ridagi xuddi o‘ziga dohildek yozgan ushbu satrlari bilan muxtasar qilaman:

**Tirik edi u So‘z!**
**Hozir-da,**
**Tirikligi ochiq va oshkor!**
**Paypaslamang –**
**nima bor go‘rda?**
**U**
**bizning**
**ich-ichimizda**
**bor...**

**Gulchehra ASRONOVA,**
**yozuvchi**

TILBILIM

# “UDDABURO” LUG‘ATCHILAR



**Keyingi yillarda tilimiz imlosida chalkashlik paydo bo‘lgan so‘zlardan biri “uddaburo” so‘zidir. Bu so‘zning matbuotda “uddaburro” shaklida xato ishlatilayotganini ko‘p kuzatdim. Xo‘sh, chalkashlik nimada?**

“Uddaburo” so‘zi arabcha “uhda” va forscha “buro” o‘zaklaridan tashkil topgan. “Uhda” so‘zi o‘zbek adabiy tilida “udda” shaklini olgan. “Udda” – biror ishni bajara olish, o‘rinlatish, amalga oshirish, eplash. “Buro” esa “buromadan” fe’lining o‘zagi. U “udda” so‘zi bilan birikib, biror ishni eplashga ustalik, mohirlik ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Qizig‘i shundaki, “uddaburo” so‘zidagi chalkashlikning paydo bo‘lish tarixi lug‘atlarimizda yashiringan. Lug‘atchilar ham ba’zan qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarib qo‘yar ekanlar. Hozircha eng to‘g‘ri va savodli deb suyanib keladigan, 1976-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da so‘z quyidagicha berilgan: “uddaburon” (446-bet). Bunda so‘zning asosiy qismi – “uddaburo” to‘g‘ri yozilgan-u, lekin oxiridagi “n” harfi o‘ylantiradi. Fors-tojik tilidagi “buromadan” (chiqmoq) fe’li jonli talaffuzda, shevada “burondan” deb ham ishlatiladi. Balki, lug‘atchilar shu shakldagi “buron”ni asos qilib olishgandir. Shunday deb taskin topish ham mumkin. Lekin mazkur imlo lug‘atiga asoslanib tuzilgan, 1981-yili Moskvaning “Rus tili” nashriyotida chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2-jildi, 264-betida so‘zning to‘g‘ri shakli “uddaburo” deb yozilgan. Ikkala lug‘at ham bir ilmiy muassasa – O‘zFA Til va adabiyot institutida tayyorlangan. Izohli lug‘atdagi shakl to‘g‘riroq, nazarimizda.

Endi so‘zning izohlanishiga ham e’tibor beraylik. Keltirilgan izohli lug‘atda so‘z quyidagicha izohlangan: “Har ishni udda qila oladigan, eplay oladigan; epchil, abjir”. Bu – to‘g‘ri izoh.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2008-yili “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida qayta nashr etilganida, so‘z yana 1976-yildagi imlo lug‘atidagidek “uddaburo (n)” (4-jild, 264-bet) shaklida berilgan. Faqat bunda “n” harfi qavsga olingan.

Nega har xillik davom etyapti? Bu ham mayliku-ya, ammo izohda so‘zning arabcha, forscha o‘zaklari keltirilib, forscha o‘zak ro‘parasiga “kesuvchi, keskir, o‘tkir” so‘zlari yozib qo‘yilgani g‘alati bo‘lgan. Izoh esa oldingi nashrdagi bilan bir xil. Lug‘atchi forscha “buro” (chiqmoq) bilan “burro” (keskir) so‘zini chalkashtirib yuborgan. Yangi nashrga yangilik kiritmoqchi bo‘lgan-u, amalda xalq jonli tilidagi chalkashlikni ilmiy nashrda rasmiylashtirgan-qo‘ygan. Bu lug‘at ham oldingi muassasa – O‘zFA Til va adabiyot institutida tayyorlangan.

Imloviy va izohli lug‘atlarimizdagi chalkashliklarni bartaraf etish tilshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifadir. Muharrirlarimiz, musahhihlarimiz va keng miqyosdagi ona tilimiz tasarrufchilari ogoh bo‘lsinlarki, nainki o‘zbek adabiy tilida, balki arab, fors tilida ham “uddaburro” so‘zi yo‘q. “Uddaburo” so‘zi bor va uning shunday yozilish shakli to‘g‘ridir.

**Nusratullo JUMAXO‘JA,**
**filologiya fanlari doktori,**
**professor**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

**Bosh muharrir:**
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 157
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 591
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 284
Buyurtma: G – 1040
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

**Mas’ul kotib:** Shuhrat Azizov

**Navbatchi muharrir:**
Otabek Bakirov

**Sahifalovchilar:**
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**

**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:20

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

*Muassislar:*

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI